

KASBIY STANDART

Sartaroshlik ishlari

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR-kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi:

Mazkur kasbiy standart aholiga sartaroshlik xizmatlarini ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarning kasbiy faoliyatini tartibga solishga mo'ljallangan normativ hujjat hisoblanadi. U sochlarni parvarishlash, kesish, turmaklash, bo'yash, kimyoviy ishlov berish, gigiyenik va estetik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq kasbiy faoliyat turlarini qamrab oladi.

Kasbiy standart quyidagi tashkilotlar va subyektlar tomonidan qo'llaniladi:

sartaroshlik salonlari, go'zallik markazlari va servis ko'rsatish obyektlari;

yakka tartibdagi tadbirkorlar va xususiy sartaroshlar;

kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug'ullanuvchi ta'lim va trening muassasalari;

xodimlarning malakasini baholash, attestatsiyadan o'tkazish va sertifikatlash bilan shug'ullanuvchi vakolatli organlar va markazlar.

Ushbu kasbiy standart sartaroshlik ishlari bilan shug'ullanuvchi xodimlarning mehnat funksiyalari, mehnat vazifalari, zarur bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek sanitariya-gigiyena qoidalari, mehnatni muhofaza qilish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va xavfsizlik talablariga oid majburiy kasbiy talablarni belgilaydi.

Kasbiy standart mulkchilik shaklidan qat'i nazar, sartaroshlik xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi xodimlarga nisbatan tatbiq etiladi hamda xizmatlar sifati va xavfsizligini oshirish, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar bozorida yagona kasbiy talablarni shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – muayyan kasb haqida tizimlashtirilgan ma'lumotlarni (kasb nomi, malaka darajasi, ish staji, layoqati va shaxsiy kompetensiyalariga qo'yilgan talablar v.b.) o'z ichiga oluvchi kasbiy standartning tarkibiy qismi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat vazifalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat vazifalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kasbiy standartlar reyestri – kasbiy faoliyat sohalari va turlari bo'yicha tizimlashtirilgan kasbiy standartlar ro'yxati.

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – muayyan mehnat funksiyasini bajarish uchun xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'siri jarayoni;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni.

rangshunoslik - Soch bo'yashda ranglar nazariyasini tushunish, ranglarni to'g'ri tanlash va aralashtirish mahorati. Bu soch rangini istalgan natijaga erishish uchun juda muhim.

portfolio - Sartaroshning o'z ishlarini namoyish etish, mijozlarga o'z mahoratini ko'rsatish uchun foydalanadigan ishlar to'plami.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

Ushbu Kasbiy Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo'llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

TTMM – tarmoq tarif-malaka ma'lumotnomasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi	Sartaroshlik ishlari	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi	Mijozlarning estetik ehtiyojlarini qondirish, ularning tashqi koʻrinishini yaxshilash va shaxsiy imidjini yaratishda professional xizmat koʻrsatish	
3.	IFUT boʻyicha seksiya, boʻlim, guruh, sinf va kichik sinf	S seksiyasi boshqa turdagi xizmatlar koʻrsatish; 96- Boshqa shaxsiy xizmatlar koʻrsatish; 96.0. Boshqa shaxsiy xizmatlar koʻrsatish; 96.02. Sartaroshxonalar va goʻzallik salonlari xizmatlari; 96.02.0. Sartaroshxonalar va goʻzallik salonlari xizmatlari	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Sartaroshlik sohasida faoliyat yuritadigan mutaxassislar uchun majburiy boʻlgan bilimlar, koʻnikmalar va malakalar toʻplamini belgilovchi rasmiy hujjat	
5.	Qamrab olingan kasblar roʻyxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		51410001 Ayollar sartaroshi	3
		51410004 Sartarosh-modelyer	3
		51410002 Erkaklar sartaroshi	3
		51410003 Imidjmeyker (stilist)	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	51410001 Ayollar sartaroshi	A1.3	Soch kesish, bo'yash, rang berish, sochni turmaklash va shakl berish	A1.01.3	Sochni tayyorlash, ajratish va kesish
				A1.02.3	Rang diagnostikasi, bo'yash va yuvish
				A1.03.3	Yuvish, tayyorlash, turmaklash
2.	51410004 Sartarosh-modelyer	B1.3	Mijozlar bilan ishlash va konsultatsiya berish	B1.01.3	Mijozni kutib olish va ehtiyojlarini aniqlash
				B1.02.3	Soch va bosh terisi diagnostikasi
				B1.03.3	Professional maslahatlar berish va yechimlarni taklif qilish, ishonchli va professional muhit yaratish
		B2.3	Soch kesish va shakl berish	B2.01.3	Mijozning individual xususiyatlarini hisobga olish
				B2.02.3	Soch kesish texnikalarini mahorat bilan qo'llash
				B2.03.3	Sochga shakl berish (turmaklash) qayta ishlash va yakunlash
		B3.3	Soch bo'yash va rang berish	B3.01.3	Mijoz bilan konsultatsiya va rang tanlash, koloristika bilimlarini qo'llash
				B3.02.3	Soch bo'yash texnikalarini bajarish
				B3.03.3	Texnik mahorat jarayonni nazorat qilish va yakunlash
		B4.3	Sochni parvarishlash va davolash muolajalari	B4.01.3	Diagnostika va individual yondashuv
				B4.02.3	Maxsus parvarish muolajalarini bajarish

				B4.03.3	Mahsulotlar va asbob-uskunalar bilan ishlash
				B4.04.3	Mijozga uy sharoitida parvarish bo'yicha tavsiyalar
3.	51410002 Erkaklar sartaroshi	D1.3	Soch kesish va shakl berish	D1.01.3	Konsultatsiya, sochni tayyorlash, ajratish va kesish
		D2.3	Soqol va mo'ylov bilan ishlash (erkaklar sartaroshligi uchun)	D2.01.3	Soqol va mo'ylovni shakllantirish va kesish
		D3.3	Bosh, soqol va mo'ylovni parvarishlash	D3.01.3	Soqol va mo'ylovni parvarishlash muolajalari
4.	51410003 Imidjmeyker (stilist)	E1.4	Mijozning ehtiyojlarini aniqlash, yaratish va taklif etish	E1.01.4	Mijozning ehtiyojlarini aniqlash (Diagnostika va tahlil)
				E1.02.4	Imidjni yaratish (Konseptualizatsiya)
				E1.03.4	Imidjni taklif etish (Taqqimot va kelishuv)
				E1.04.4	Pochta jo'natmalari va naqd pullarni yetkazib berishni hisobga olish va hujjatlashtirish
		E2.4	Tashqi ko'rinish va imdga moslashishda maslahat va yordam ko'rsatish	E2.01.4	Diagnostika va Konsalting (Maslahat berish)
				E2.02.4	Imidj Konsepsiyasini Yaratish va Taqqim etish (Yordam ko'rsatishning nazariy qismi)
				E2.03.4	Amaliy Yordam va Ijro (Yordam ko'rsatishning amaliy qismi)

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Ayollar sartaroshi	
Mashg'ulot nomining kodi	51410	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yiladigan talablar	Ta'lim darajasi umumiy o'rta ta'lim bo'lganda 1 yillik amaliy tajriba talab qilinadi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	18 yosh, muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli amaliy va kognitiv ko'nikmalar	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim, norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Ta'lim darajasi umumiy o'rta ta'lim bo'lganda norasmiy (informal) ta'lim talab qilinadi	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	14390027 Sartaroshxona mudiri 3	
	51410003 Imidjmeyster (stilist) 4	
	51410004 Sartarosh-modelyer 3	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	51420002 Kosmetolog
		Barber

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3 Soch kesish, bo'yash, rang berish, sochni turmaklash va shakl berish	A1.01.3 Sochni tayyorlash, ajratish va kesish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning xohishlarini, uning turmush tarzini va sochi bilan bog'liq muammolarini diqqat bilan tinglash. Uning kutgan natijalarini aniqlashtirish uchun savollar berish
		2. Mijozning yuz shakli, sochining tabiati (turi, qalinligi, o'sish yo'nalishi) va umumiy uslubiga mos keladigan soch turmagi variantlarini taklif qilish. Kataloglar yoki raqamli resurslar yordamida yakuniy natijani mijozga tasavvur qildirish
		3. Kesishdan oldin sochni uning turiga mos shampun bilan tozalash. Sochning sifatini yaxshilash va tarashni osonlashtirish uchun konditsioner yoki boshqa parvarish vositalarini qo'llash
		4. Sochni yaxshilab tarash, tugunlardan xalos etish. Kesish texnikasiga qarab, sochni kerakli darajada nam holda ushlab turish (ayrim texnikalar quruq sochda bajariladi)
		5. Sochni aniq va to'g'ri bo'limlarga ajratish. Bu har bir qismni nazoratli kesish imkonini beradi va yakuniy natijaning simmetriyasini ta'minlaydi

		6. Sochni kesishda kerakli hajm, harakat va shaklni hosil qilish uchun to'g'ri burchak ostida (masalan, 0, 45, 90 daraja) ushlash
		7. Tanlangan soch turmagi va mijozning soch turiga mos keladigan kesish texnikasini (masalan, to'g'ri kesish, gradient, kaskad, filirovka, slaying) aniq va mahorat bilan bajarish
		8. Kesish jarayonida soch turmagining har ikki tomonida simmetriyaga rioya qilish va umumiy shaklning muvozanatli bo'lishini doimiy vizual nazorat qilish
		Ko'nikma:
		Turli soch holatlarini (masalan, shikastlangan, quruq, yog'li) aniqlash
		Sochni to'g'ri yuvish va konditsionerlash, suv haroratini nazorat qilish
		Kesish uchun optimal namlik darajasini ta'minlash
		Zarur bo'lganda issiqlikdan himoya vositalarini to'g'ri qo'llash
		Sochni teng va to'g'ri qismlarga ajratish, ajratilgan qismlarni mahkam ushlab turish
		Yakuniy soch turmagini ko'z oldiga keltirib, unga mos ravishda ajratish, qaychi va tarokdan ergonomik va samarali foydalanish
		Slice cutting, point cutting, effilage kabi texnikalarni egallash
		Sochni kerakli burchaklar ostida kesish orqali hajm va shaklni yaratish
		Kesilgan soch uzunligining simmetriyasini yoki rejalashtirilgan assimetriyasini ta'minlash
		Mayda detallarga (masalan, portlash, yuz ramkalari) aniqlik bilan ishlov berish
		Kesish jarayonida mijozning holatini kuzatib borish va unga moslashish
		Bilim:
		Shampun, konditsioner va boshqa mahsulotlarning sochga ta'sirini tushunish
		Ish joyini va asboblarni toza saqlash qoidalari
		Suvning qattiqligi va uning sochga ta'siri
		Sochni kesishdagi burchaklar va yo'nalishlarning ahamiyati
		Sochning tabiiy o'sish yo'nalishlarini tushunish
		Sochning har xil turlari uchun eng mos kesish usullari
		Bosh suyagi shakli va uning soch turmakiga ta'siri
		Soch kesish va turmaklash bo'yicha joriy moda yo'nalishlari, Qaychi turlari, pichoqlar va ularning ishlatilishini tushunish
	Mas'uliyat va mustaqillik	1. Sochni tayyorlash, ajratish va kesish jarayoni sataroshdan yuqori darajadagi mas'uliyat va mustaqillikni talab qiladi.
		2. Usta o'z ishining sifatiga, mijozning xavfsizligi va qoniqishiga to'liq javobgardir.
		3. Ishni boshlashdan avval gigiyena qoidalarga rioya qilish, asbob-uskunalarni tozalash va dezinfeksiya qilish, ish joyini tartibda saqlash sataroshning eng muhim mas'uliyatlaridan biridir
	A1.02.3 Rang diagnostikasi,	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning soch holatini (oldingi bo'yoqlar, shikastlanish darajasi), tabiiy rangini va bosh terisi holatini tekshirish

	bo'yash va yuvish	2. Mijozning xohishlarini diqqat bilan tinglash va ular erishmoqchi bo'lgan rang natijasini tushunish
		3. Mijozning yuz rangiga, teri ohangiga va soch tipiga mos keladigan rang palitrasini taklif qilish
		4. Bo'yash natijasining ehtimoliy imkoniyatlari va cheklovlari haqida shaffof ma'lumot berish (masalan, qora sochni bir bo'yashda sarg'ish qilish imkonsizligi)
		5. Zarur hollarda rang bo'yog'iga bo'lgan allergik reaksiyani tekshirish
		6. Mijozning kiyimlarini va terisini bo'yoq dog'laridan himoya qilish (cape, qo'lqop, himoya kremi)
		7. Ba'zi bo'yoq turlari toza sochga, ba'zilar esa ozgina kir sochga yaxshiroq singishi sababli, unga mos ravishda sochni yuvish yoki yuvmaslik
		8. Tanlangan rang va kerakli nisbatlarda bo'yoqni oksidlovchi bilan aralashtirish
		9. Bo'yoq cho'tkalari, idishlar, folga (agar kerak bo'lsa) va boshqa kerakli anjomlarni hozirlash
		10. Sochni aniq va tartibli bo'limlarga ajratish orqali bo'yoqning bir tekis taqsimlanishini ta'minlash
		11. Tanlangan bo'yash uslubiga (masalan, to'liq rang, melirovka, ombre, balayaj) qarab, bo'yoqni sochga to'g'ri va aniq qo'llash.
		12. Ildizlarni yoki to'liq uzunlikni bo'yashda bo'yoqning har bir tolaga yetib borishini ta'minlash
		13. Rangning bir xil chiqishi uchun bo'yoqni soch bo'ylab bir tekis tarqatish
		14. Bo'yoqning ta'sir qilish muddatini to'g'ri belgilash va kuzatish
		15. Rangning kerakli darajada o'zgarganligini muntazam tekshirib borish
		16. Bo'yoqni sochlarni shikastlamasdan to'liq yuvib tashlash va rangni neytrallash uchun maxsus shampun va konditsionerlardan foydalanish
		17. Mijozga mos keladigan turmakni yaratish va rangning yakuniy ko'rinishini namoyish etish
		18. Rangning uzoqroq saqlanishi uchun uyda parvarish qilish bo'yicha maslahatlar berish
	Ko'nikma:	
	Mijozning istaklarini, soch tarixi va parvarish odatlarini chuqur anglash	
	Soch va bosh terisining hozirgi holatini aniq baholash, shikastlanish darajasini aniqlash	
	Rang nazariyasini va kutiladigan natijalarni mijozga tushunarli tilda yetkazish	
	Mijozning teri ohangi, ko'z rangi va yuz tuzilishiga mos ranglarni tanlash	
	Mijozni va ish joyini bo'yoq dog'laridan samarali himoyalash	
	Bo'yoq turiga qarab sochni to'g'ri yuvish yoki yuvmaslik	
	Rang bo'yoqlarini aniq nisbatlarda, bir xil konsistensiyada aralashtirish	

		Bo'yash uchun barcha zarur asboblarni (cho'tkalar, idishlar, folga) tayyorlash
		Sochni aniq va tartibli bo'limlarga ajratish orqali rangning bir tekis taqsimlanishini ta'minlash
		Bo'yoqni soch ildizlaridan uchigacha yoki kerakli joyga aniq surtish
		Melirovka, ombre, balayaj kabi murakkab bo'yash texnikalarini mohirlik bilan bajarish
		Rangning bir xil chiqishi uchun bo'yoqni soch bo'ylab optimal tarzda tarqatish
		Bo'yoqning ta'sir qilish muddatini aniq boshqarish
		Rangning kerakli natijaga erishganligini doimiy tekshirib borish
		Bo'yoq qoldiqlarini to'liq olib tashlash va rangni barqarorlashtirish
		Mijozga mos turmakni yaratish va rangning yakuniy ko'rinishini ko'rsatish
		Bilim:
		Soch tuzilishi, bo'yoqlarning sochga ta'siri va oksidlanish jarayonlari
		Asosiy, ikkilamchi, uchlamchi ranglar, rang doirasi va ularning o'zaro ta'siri
		Doimiy, yarim-doimiy, vaqtinchalik bo'yoqlar hamda ularning xususiyatlari
		Rang bo'yoqlariga qarshi reaksiyalarni aniqlash va xavfsizlik choralarini bilish
		Ish joyi va asboblarni dezinfeksiya qilish qoidalari
		Bo'yoqlar va oksidlovchilarning kimyoviy tarkibi, ularning o'zaro reaksiyalari
		Har xil soch bo'yash texnikalari va ularning afzalliklari, kamchiliklari
		Sochning tabiiy o'sish yo'nalishlari va uning bo'yoqni singdirish qobiliyati
		Rang berishda yorug'lik va soyalarning o'zaro ta'sirini tushunish
		Kutilmagan rang natijalarini tuzatish usullari
		Rangli sochni parvarish qilish bo'yicha mahsulotlar va ulardan foydalanish
		Rangning uzoq saqlanishi uchun uy sharoitida parvarish qilish bo'yicha professional tavsiyalar
	A1.03.3 Yuvish, tayyorlash, turmaklash	Mehnat harakatlari:
		1. Turmaklashdan oldin sochni to'g'ri yuvish va kerakli balzam yoki niqobni qo'llash
		2. Sochni quritishdan oldin ortiqcha namligini artish (masalan, sochiq bilan quritish)
		3. Issiqlikdan himoya qiluvchi, hajm beruvchi yoki silliqlashtiruvchi mahsulotlarni sochga bir tekis surtish
		4. Soch turiga va kerakli turmakka mos quritish uslubini belgilash (masalan, diffuzer, fen va dumaloq taroq)
		5. Soch ildizlariga hajm berish yoki butun soch bo'ylab bir tekis hajm yaratish
		6. Sochni fen yordamida to'g'rilash yoki maxsus dazmollar bilan silliqlash

	7. Maxsus jingalaklash moslamalari (ployka, bigudi) yordamida jingalaklar hosil qilish
	8. Soch tolalariga kerakli yo'nalishni berish
	9. Tayyor turmakni lak yoki boshqa fiksatorlar yordamida uzoq vaqt saqlanishini ta'minlash
	10. Sochga sog'lom yaltiroqlik beruvchi spreylarni qo'llash
	11. Soch turmagining mayda detallarini (masalan, yuz atrofidagi iplar, portlash) joyiga keltirish
	12. Tayyor turmakni mijozga turli burchaklardan ko'rsatish va uning roziligini olish
	13. Turmakning uzoqroq saqlanishi va uyda parvarish qilish bo'yicha tavsiyalar berish
	14. Mijozga mos keladigan turmakni yaratish va rangning yakuniy ko'rinishini namoyish etish
	Ko'nikma:
	Mijozning istaklarini, soch tarixi va parvarish odatlarini chuqur anglash
	Soch va bosh terisining hozirgi holatini aniq baholash, shikastlanish darajasini aniqlash
	Rang nazariyasini va kutiladigan natijalarni mijozga tushunarli tilda yetkazish
	Mijozning teri ohangi, ko'z rangi va yuz tuzilishiga mos ranglarni tanlash
	Mijozni va ish joyini bo'yoq dog'laridan samarali himoyalash
	Bo'yoq turiga qarab sochni to'g'ri yuvish yoki yuvmaslik
	Rang bo'yoqlarini aniq nisbatlarda, bir xil konsistensiyada aralashtirish
	Bo'yash uchun barcha zarur asboblarni (cho'tkalar, idishlar, folga) tayyorlash
	Sochni aniq va tartibli bo'limlarga ajratish orqali rangning bir tekis taqsimlanishini ta'minlash
	Bo'yoqni soch ildizlaridan uchigacha yoki kerakli joyga aniq surtish
	Melirovka, ombre, balayaj kabi murakkab bo'yash texnikalarini mohirlik bilan bajarish
	Rangning bir xil chiqishi uchun bo'yoqni soch bo'ylab optimal tarzda tarqatish
	Bo'yoqning ta'sir qilish muddatini aniq boshqarish
	Rangning kerakli natijaga erishganligini doimiy tekshirib borish
	Bo'yoq qoldiqlarini to'liq olib tashlash va rangni barqarorlashtirish
	Mijozga mos turmakni yaratish va rangning yakuniy ko'rinishini ko'rsatish
	Bilim:
	Turli turmaklash mahsulotlari (mousse, gel, lak, issiqlikdan himoya vositalari) va ularning sochga ta'siri
	Sochni to'g'ri yuvish va parvarish qilish prinsiplari
	Turli soch turlari (ingichka, qalin, jingalak, to'g'ri) va ularning turmaklashdagi xususiyatlari

		Turmaklash asboblarning (fen, dazmol) sochga ta'siri va shikastlanishdan himoyalash yo'llari
		Hajm, tekstura va yo'nalish orqali estetik turmak yaratish asoslari
		Turmakning mijoz yuziga va umumiy ko'rinishiga mos kelishi
		Turmakni uy sharoitida qanday parvarish qilish va saqlash bo'yicha tavsiyalar
	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		-

Kasbning nomi	Sartarosh-modelyer	
Mashgʻulot nomining kodi	51410	
TMR boʻyicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qoʻyiladigan talablar	Taʼlim darajasi umumiy oʻrta taʼlim boʻlganda 1 yillik amaliy tajriba talab etiladi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar	18 yoshga toʻlgan boʻlishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy koʻrikdan oʻtgan boʻlishi.	
Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar	1) boshlangʻich professional taʼlim 2) oʻrta maxsus taʼlim 3) umumiy oʻrta taʼlim boʻlganda norasmiy (informal) taʼlim yoki 1 yillik amaliy tajriba talab etiladi.	
Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi	Taʼlim darajasi umumiy oʻrta taʼlim boʻlganda norasmiy (informal) taʼlim talab etiladi	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari	Soch stilisti (Hair Stylist)	
	Kreativ sartarosh (Creative Hairdresser)	
	Modelyer-sartarosh (Hair Designer)	
	Soch kesish ustasi (Hair Cutter/Styling Specialist)	
	Erkaklar sartaroshi / Barbershop ustasi (Barber),	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR boʻyicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	51410001 Ayollar sartaroshi
	3	51410002 Erkaklar sartaroshi
	4	51410003 Imidjmeyker (stilist)

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3 Mijozlar bilan ishlash va konsultatsiya berish	B1.01.3 Mijozni kutib olish va ehtiyojlarini aniqlash	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Mijozni tabassum bilan iliq kutib olish, ismini aytib murojaat qilish (agar bilsa) va o'tirishga taklif qilish, qulay muhit yaratish
		2. Faol tinglash: Mijozning xohish-istaklarini diqqat bilan eshitish, uning aytganlarini to'liq tushunishga intilish
		3. Aniqlashtiruvchi savollar: Mijozning "qanday turmak xohlaysiz?", "qanday uslubga o'rgangan?", "qanday tadbirga tayyorlanyapsiz?" kabi aniq savollar berish.
		4. Mijozning yuz shakli, soch turi (qalinligi, holati, to'g'riligi/jingalakligi), terisi va umumiy uslubini diqqat bilan kuzatish.
		5. Mijozning sochi va yuz tuzilishiga mos keladigan variantlarni tahlil qilish.
		6. Mijozning xohishlari uning sochi holati yoki yuz shakliga qanchalik mos kelishini professional tarzda tushuntirish
		7. Mijozning istaklari va o'zining professional bahosi asosida bir nechta mos keluvchi turmak/rang berish variantlarini ilgari surish.

	8. Agar iloji bo'lsa, mijozga misollar (suratlar, jurnallar) orqali kutilayotgan natijani ko'rsatish.
	9. Mijoz bilan tanlangan turmak, rang yoki xizmat bo'yicha to'liq kelishuvga erishish.
	10. Xizmatning davomiyligi, narxi va kutilayotgan natijalar haqida aniq ma'lumot berish.
	Ko'nikma:
	Faol tinglash: Mijozning so'zlarini, yashirin xohishlarini va tashvishlarini chuqur anglay olish. Bu shunchaki eshitish emas, balki tushunishga intilishdir.
	Empatiya: Mijozning his-tuyg'ularini, masalan, o'zgarishdan xavotirini his qila olish va unga hamdardlik bildirish.
	Ijobiy tan tili: Ochiq, do'stona imo-ishoralar, tabassum va ko'z kontakti orqali mijozga xush kelibsiz kayfiyatni yetkaza bilish.
	Savol berish san'ati: Mijozning haqiqiy istaklarini va sochining holatini tushunish uchun to'g'ri, aniqlovchi va chuqur savollar bera olish.
	Detailga e'tibor: Sochning eng kichik detallarini (tuzilishi, rangi, holati, o'sish yo'nalishi, eski turmak izlari) tezda payqay olish.
	Yuz anatomiyasini tahlil qilish: Mijozning yuz shakli, peshona balandligi, jag' chizig'i kabi jihatlarini tezda baholab, ularga mos turmaklarni tasavvur qila olish.
	Uslubni aniqlash: Mijozning kiyinish uslubi, aksessuarlari va umumiy tashqi ko'rinishi orqali uning shaxsiy stilini idrok etish.
	Professional til: Soch turlari, ranglar va texnikalar bo'yicha professional terminologiyadan tushunarli tarzda foydalana bilish.
	Variantlar taklif qilish: Mijozning istaklari va o'zining professional bahosi asosida bir nechta mos keluvchi, ammo turli xil variantlarni taklif eta bilish.
	Kutilmalarni boshqarish: Xizmat natijalari haqida realistik va aniq ma'lumot berish, mijozda asossiz umidlar uyg'otmaslik.
	Ishonchni uyg'otish: O'z bilimi va ko'nikmalarini namoyish etish orqali mijozda ishonch tuyg'usini shakllantirish.
	Bilim:
	Soch tiplari: Har xil soch turlarini (masalan, to'g'ri, to'lqinli, jingalak, quruq, yog'li, normal) va ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilish.
	Soch holati: Shikastlangan, rang berilgan, ingichka yoki qalin sochning holatini aniqlash va turmakka ta'sirini bilish.
	Bosh terisi: Bosh terisi holatiga (masalan, quruqlik, yog'lilik, sezuvchanlik) oid asosiy bilimlarga ega bo'lish.
	Yuz shakllari: Oval, yumaloq, to'rtburchak, yuraksimon, olmos kabi asosiy yuz shakllarini bilish.
	Proporsiyalar: Yuzning turli qismlari (peshona, burun, jag') o'rtasidagi proporsiyalarni va ularning soch turmagi tanlashga ta'sirini tushunish.
	Yuzdagi xususiyatlar: Ko'zlar, burun, og'iz shakli kabi individual xususiyatlarni inobatga olgan holda turmakni tanlash prinsiplari.

		Rang nazariyasi: Rang doirasi, asosiy va qo'shimcha ranglar, ularning bir-biriga ta'siri haqida umumiy tushuncha. Teri va ko'z rangiga moslik: Mijozning teri rangi (iliq yoki sovuq tonlar) va ko'z rangiga mos keladigan soch ranglarini tanlash qoidalari. Bo'yash texnikalari: Asosiy soch bo'yash texnikalarining (masalan, melir, balayaj, ombre) vizual effektlari haqida ma'lumot. Mijoz xohishlarini aniqlash: Mijozning tana tili, so'zlash uslubi va umumiy xulq-atvori orqali uning haqiqiy istaklarini tushunish. Kutilmalarni boshqarish: Mijozning xayolidagi turmakni uning soch holati va yuz tuzilishiga qanchalik mos kelishini aniq, ammo xushmuomalalik bilan tushuntira olish. Ishonch o'rnatish: Professionalizm va samimiyat orqali mijozning ishonchini qozonish. Hozirgi trendlar: Soch turmaklari, kesish uslublari va bo'yash texnikalaridagi eng so'nggi moda yo'nalishlarini bilish. Klassik uslublari: Vaqt sinovidan o'tgan, har doim dolzarb bo'lgan soch turmaklari va uslublari haqida bilim.
	B1.02.3 Soch va bosh terisi diagnostikasi	Mehnat harakatlari: 1. Sochning umumiy holatini, yaltiroqligini, sinuvchanligini, uchlarining holatini va bosh terisida qizillik, qichishish yoki qazg'oq bor-yo'qligini sinchiklab ko'zdan kechirish 2. Sochning tabiiy o'sish yo'nalishini, uyurmalarini (quyma soch) aniqlash 3. Kimyoviy ishlov (bo'yash, kimyoviy buklash) yoki issiqlik asboblari (fen, dazmol) kelib chiqqan zararlarni vizual aniqlash 4. Sochning qalinligi, ingichkaligi, dag'alligi yoki yumshoqligini paypaslab aniqlash 5. Sochning quruqligini yoki yog'liligini barmoqlar orqali sezish 6. Soch parvarishi tartibi, ishlatadigan mahsulotlar, avvalgi kimyoviy ishlovlar, sog'lig'idagi o'zgarishlar (masalan, gormonal) haqida savollar berish 7. Mijozning sochi yoki bosh terisi bilan bog'liq asosiy xavotirlarini (masalan, soch to'kilishi, qazg'oq, yog'lanish) aniqlash 8. To'plangan ma'lumotlar asosida soch va bosh terisining aniq muammolarini tashxislash 9. Mijozning ehtiyojlariga mos keladigan parvarish mahsulotlari, muolajalar yoki keyingi xizmatlar (masalan, maxsus maskalar, bosh terisi massaji) bo'yicha aniq tavsiyalar berish 10. Taklif etilgan yechimlarning qanday natijalar berishini mijozga tushunarli tilda izohlash Ko'nikma: Soch va bosh terisidagi har qanday anormallikni (qazg'oq, qizillik, siyraklashish, shikastlanish) tezda payqay olish Soch tolasi qalinligi, porlashi, sinuvchanligi kabi mayda jihatlarni ajrata bilish Barmoqlar orqali sochning teksturasi, namlik darajasi, bosh terisining elastikligi va harorati kabi xususiyatlarni sezish

		Soch tolalarini ajratish, bosh terisini ehtiyotkorlik bilan tekshirish uchun aniq va nozik harakatlar qila bilish
		Kuzatuv va palpatsiya natijalarini mijoz bergan ma'lumotlar bilan bog'lab, soch va bosh terisining asosiy muammosini (masalan, quruqlik, yog'lilik, to'kilish) tashxislash.
		Muammolarning mumkin bo'lgan sabablarini (masalan, noto'g'ri parvarish, kimyoviy ta'sir) tahlil qila olish
		Mijozdan uning parvarish tartibi, ishlatadigan mahsulotlar va bosh terisi bilan bog'liq tajribalari haqida samarali so'rab bilish
		Diagnostika natijalarini va taklif etilayotgan yechimlarni mijozga oddiy, tushunarli tilda izohlay olish
		Mijozning ehtiyojlariga mos keladigan parvarish usullari, mahsulotlar yoki keyingi muolajalar bo'yicha aniq va amaliy tavsiyalar bera olish
		Bilim:
		Soch folikulasi, soch tuzilishi (korteks, medulla, kutikula), soch o'sish sikli (anagen, katagen, telogen fazalar) va bosh terisi tuzilishi (epidermis, derma, gipoderma) haqida fundamental bilimlar
		Bosh terisining keng tarqalgan kasalliklari (masalan, seboreya, kepek, psoriaz, dermatitlar), soch to'kilishi turlari (androgenetik alopesiya, telogen effluvium) va ularning tashqi belgilari, shuningdek, davolash usullari haqida umumiy tushunchalar
		Soch va bosh terisi muammolarining kelib chiqish sabablari (gormonal o'zgarishlar, stress, noto'g'ri ovqatlanish, irsiyat, kimyoviy ta'sirlar) va ularni aniqlash metodlari
		Soch va bosh terisi turlari (quruq, yog'li, normal, aralash), ularning ehtiyojlari va tegishli parvarish mahsulotlari (shampunlar, konditsionerlar, maskalar, losyonlar) tarkibi (ingredientlar va ularning ta'siri), shuningdek, professional va uy sharoitida foydalanish uchun tavsiya etilgan mahsulotlar assortimenti
		Vizual tekshiruv, palpatsiya, so'rovnomalar o'tkazish, ba'zida maxsus asboblardan (masalan, mikrokamera) yordamida soch va bosh terisi holatini baholash ko'nikmalari
		Ish joyini, asbob-uskunalarini dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish qoidalari, shaxsiy gigiyena normalari
		Mijozning muammolarini diqqat bilan tinglash, aniq savollar berish, tushunarli tilda maslahat berish va tavsiyalar asosida ishonchli munosabat o'rnatish
		Mijozda allergiya reaksiyalari yoki bosh terisi sezuvchanligini aniqlash, potentsial xavflarni baholash va tegishli choralarni ko'rish
		Soch va bosh terisi holatini to'g'ri baholash, muammolarni aniqlash, maqsadga muvofiq xizmatlarni taklif qilish va parvarish bo'yicha shaxsiy tavsiyalar berish
	B1.03.3 Professional maslahatlar berish va yechimlarni taklif qilish, ishonchli	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning xohish-istaklarini, kutgan natijalarini va soch parvarishi bo'yicha muammolarini diqqat bilan tinglash. Bu savollar berish va mijozning javoblarini tushunishga qaratilgan bo'lishi kerak
		2. "Sochingizning qaysi tomoni sizga eng ko'p yoqmaydi?", "Qanday uslubda sochlaringizni tez-tez turmaklaysiz?", "Qaysi mashhurning

	va professional muhit yaratish	soch turmagi sizga ilhom beradi?" kabi savollar orqali mijozning aniqroq talablarini aniqlash
		3. Mijozga kataloglar, jurnallar yoki raqamli platformalardagi suratlarni ko'rsatib, uning tushunchasini aniqlashtirish va bir xil tasavvurga ega bo'lish
		4. Agar mijozning xohishi uning sochiga mos kelmasa, unga bir nechta muqobil, ammo qiziqarli variantlarni taklif qilish. Har bir variantning afzallik va kamchiliklarini tushuntirish.
		5. Mijozning soch va bosh terisi turiga mos keladigan professional parvarish mahsulotlarini tavsiya qilish, ularning qanday ishlashi va nima uchun aynan shu mahsulotlar tavsiya etilayotganini tushuntirish
		6. Uy sharoitida soch parvarishi, turmaklash va rangini saqlash bo'yicha aniq va tushunarli ko'rsatmalar berish
		7. Ish joyi, asbob-uskunalar va mahsulotlarning doimiy toza va steril holatda bo'lishini ta'minlash. Bu mijozda xavfsizlik va ishonch tuyg'usini uyg'otadi
		8. Mijozga nisbatan har doim xushmuomala, hurmatli va professional munosabatda bo'lish. Ularning shaxsiy maydonini hurmat qilish va suhbatda faqat kasbga oid mavzularga e'tibor qaratish.
		9. Mijozdan olingan shaxsiy ma'lumotlarni (masalan, uning muammolari, kasalliklari) sir saqlash
		10. Xizmatni belgilangan vaqtda boshlash va tugatishga harakat qilish. Agar kechikishlar yuzaga kelsa, mijozni bu haqda oldindan xabardor qilish
		Ko'nikma:
		Mijoz bilan ochiq va tushunarli til topish, faol tinglash, savollar berish va fikrlarini aniq ifodalash. Bu mijozning ehtiyojlarini to'g'ri tushunish va unga mos javob berishni o'z ichiga oladi.
		Mijozning soch va bosh terisi bilan bog'liq muammolarini aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va eng maqbul yechimlarni topish
		Har bir mijozning shaxsiy xususiyatlari va istaklariga qarab yondashuvni o'zgartira olish, kutilmagan vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish
		Mijozga hurmat bilan munosabatda bo'lish, uning vaqtini qadrlash va salbiy holatlarda ham professional xushmuomalalikni saqlash.
		Xizmat jarayonini samarali tashkil etish, mijozga ajratilgan vaqtga rioya qilish va keyingi uchrashuvlar jadvalini to'g'ri rejalashtirish
		Mijozning yuz tuzilishi, soch turi va tanasi proporsiyalarini tezda tahlil qilib, unga eng mos keladigan soch turmagi yoki rangi bo'yicha vizual tasavvur hosil qila olish
		Norozi mijozlar bilan vaziyatni xotirjamlik bilan tahlil qilish, ularning shikoyatlarini tinglash va konstruktiv yechimlarni taklif etish
		Bilim:
		Mijozlarning shaxsiy xususiyatlarini, kayfiyatini va tanlov motivatsiyalarini tushunish uchun umumiy psixologik prinsiplar

		Soch turmaklash, bo'yash va parvarishlashdagi zamonaviy tendensiyalar, klassik va avangard uslublar haqida doimiy yangilanib turuvchi ma'lumotlar
		Kasbiy faoliyatda axloqiy me'yorlarga rioya qilish, mijozlarning maxfiyligini ta'minlash va yuqori professional standartlarga amal qilish
		Har xil turdagi soch va bosh terisi uchun mo'ljallangan professional mahsulotlarning keng assortimenti, ularning tarkibi, qo'llanilish usullari va kutilayotgan natijalari haqida chuqur bilim
		Tavsiya etilayotgan mahsulot va xizmatlarning afzalliklarini mijozga tushunarli tarzda yetkaza olish, uning ehtiyojlariga mos savdo takliflarini shakllantirish
		Ish joyi va asbob-uskunalarni toza va steril holda saqlash bo'yicha barcha sanitariya-gigiena normalari va qoidalarini bilish. Bu mijozning xavfsizligi va salomatligi uchun muhim
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Mijozning soch tuzilishi, rangi, yuz shakli, hayot tarzi va istagini inobatga olib, eng mos xizmat turini tavsiya qilishi, bunda o'zining kasbiy bilimlariga tayanish
B2.3 Soch kesish va shakl berish	B2.01.3 Mijozning individual xususiyatlarini hisobga olish	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning yuz tuzilishi (oval, doira, kvadrat, yuraksimon va boshqalar), bo'yi, gavdasi va umumiy uslubini tezkor baholash. Bu soch turmagi va rang tanlashda asos bo'ladi
		2. Bosh terisi (yog'li, quruq, sezgir, normal) va sochning o'ziga xos xususiyatlarini (qalinligi, jilvadorligi, shikastlanganligi, oldindan ishlov berilganligi) aniqlash
		3. Mijozning kundalik faoliyati, ishi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi haqida ma'lumot olish. Bu unga mos, osongina parvarish qilinadigan yoki maxsus turmaklashni talab qiladigan variantlarni taklif qilishga yordam beradi
		4. Mijozning kiyim uslubi, aksessuarlar tanlovi va umuman shaxsiy imidjiga e'tibor berish. Uning shaxsiy xohish-istaklari va qulaylik darajasini inobatga olish
		5. Kimyoviy mahsulotlarga nisbatan har qanday allergiya yoki bosh terisi sezuvchanligi bor-yo'qligini aniqlash. Bu xavfsiz xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi
		6. Mijozning yangi soch turmagidan yoki rangidan nimani kutayotganini, qanday o'zgarishlarni istayotganini aniq belgilash. Bu mijozning talablariga mos javob berish imkonini beradi
		7. Har bir mijozga o'ziga xos tarzda yondashish, uning shaxsiyatiga mos ravishda maslahatlar berish va suhbatni yo'naltirish
		8. Mijozning byudjeti, vaqti va parvarish qilishga sarflay oladigan resurslarini hisobga olib, unga mos variantlarni taklif qilish
		Ko'nikma:
		Mijozning yuz shakli, soch turi, terining rangi va umuman shaxsiy uslubini tez va aniq tahlil qila olish. Bu to'g'ri maslahat berish uchun muhim
		Mijozning kiyim uslubi, shaxsiy didi va xulq-atvoridagi nozik jihatlarni payqash orqali uning ehtiyojlarini chuqurroq tushunish

		Mijozning his-tuyg'ularini tushunish va uning istaklari, xavotirlari yoki afzalliklariga nisbatan sezgir bo'lish. Bu ishonchli munosabatni shakllantiradi
		Mijozning individual xususiyatlariga asoslanib, unga eng mos soch turmashi, rangi yoki parvarish usullarini aniq va asosli tarzda tavsiya qila olish
		Mijozning byudjeti, vaqti yoki boshqa shaxsiy cheklovlarini inobatga olgan holda, mavjud variantlar ichidan optimal yechimlarni taklif qilish
		Bilim:
		Har xil yuz shakllarining (oval, dumaloq, kvadrat, uchburchak va boshqalar) o'ziga xos xususiyatlari va ularga mos keladigan soch turmashi va chekka chiziqlari
		Terining rangi va ko'z rangi bilan soch rangining uyg'unligi, ranglar psixologiyasi va ranglarni aralashtirish qoidalari
		Har xil turdagi mijozlar (masalan, konservativ, zamonaviy, ekstravagant) va ularga individual yondashuv strategiyalari
		Mijozning madaniy kelib chiqishi va uning soch parvarishiga bo'lgan yondashuvidagi farqlar haqida umumiy tushuncha. Bu xizmat ko'rsatishda madaniy sezgirlikni ta'minlaydi
		Turli xil kosmetik mahsulotlarga nisbatan keng tarqalgan allergiya reaksiyalari va ularni aniqlash, oldini olish choralarini
		Turli soch va bosh terisi turlari uchun maxsus ishlab chiqilgan parvarish mahsulotlarining tarkibiy qismlari, ularning funksiyalari va ta'sir mexanizmlari
	B2.02.3 Soch kesish texnikalarini mahorat bilan qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Sochni kesishdan oldin to'g'ri yuvish, konditsionerlash va tarash, shuningdek, uning namligini optimal darajada ushlab turish. Bu keyingi harakatlar uchun asos yaratadi
		2. Sochni aniq va simmetrik bo'limlarga ajratish. Bu har bir qismni nazoratli kesish imkonini beradi va yakuniy natijaning aniqligini ta'minlaydi
		3. Maxsus kesish turiga qarab (qaychi, ustara, trimmer) to'g'ri asbobni tanlash va uni to'g'ri tutish
		4. Sochni kesishda to'g'ri burchak ostida ushlab turish (masalan, 0, 45, 90 daraja) orqali xohlagan hajmni, teksturani va harakatni yaratish
		5. Turli kesish texnikalarini (masalan, to'g'ri kesish, gradient, kaskad, puntirovanie, slaying) mahorat bilan qo'llash. Bu sochga kerakli shakl va hajmni berishga xizmat qiladi
		6. Kesish jarayonida sochning har ikki tomonida va umumiy shaklida simmetriya va muvozanatga rioya qilish
		7. Sochning oxirgi ko'rinishiga jonlilik va tabiiylik berish uchun tekstura berish texnikalaridan foydalanish (masalan, tukli effekt, ichki kesish)
		8. Sochni quritgandan so'ng uning shaklini tekshirish va kerakli joylarni qayta kesish, kichik kamchiliklarni bartaraf etish
		9. Kesish jarayonida mijozning yuz shakli, sochining turi va uning turmush tarziga mos keladigan yakuniy natijani ta'minlash

		Ko'nikma: Qaychi, ustara, trimmer kabi kesish asboblari yuqori aniqlik va xavfsizlik bilan boshqarish. Bu asboblarning har biriga xos tutish uslublari va harakatlarini mukammal bilishni anglatadi Sochni kesish uchun aniq va to'g'ri bo'limlarga ajrata olish. Har bir bo'limning o'z o'rni va hajmini bilish Sochni kesishda to'g'ri burchak ostida ushlash (0, 45, 90, 180 daraja) va tortish kuchini sozlay olish. Bu sochning hajmi, shakli va harakatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega Sochga jonlilik va tabiiy ko'rinish berish uchun tekstura berish (masalan, to'g'rilash, slaying, nuqtali kesish) ko'nikmalarini qo'llay olish Kesish jarayonida soch turmagining har ikki tomonida va umumiy ko'rinishida simmetriya va muvozanatga erishish. Bu yakuniy natijaning estetikligini ta'minlaydi Xizmatni belgilangan vaqt ichida yuqori sifat bilan yakunlash, har bir harakatni o'ylab bajarish va keraksiz vaqt yo'qotishlarning oldini olish Sochni quritgandan so'ng, uning tabiiy holatini hisobga olgan holda kichik kamchiliklarni bartaraf etish va yakuniy shaklni berish Bilim: Soch turlarining (ingichka, qalin, jingalak, to'g'ri), ularning o'sish yo'nalishi va elastikligining kesishga ta'siri haqida chuqur bilim Bob, kaskad, gradient, kaval, puntirovanie, slaying kabi turli xil kesish texnikalarining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi Har xil turdagi mijozlar (masalan, konservativ, zamonaviy, ekstravagant) va ularga individual yondashuv strategiyalari Har bir yuz shakli (oval, dumaloq, kvadrat, uchburchak va boshqalar) uchun eng mos soch turmagi va chekka chiziqlari haqida bilim. Bu mijozga individual yondashuvni ta'minlaydi Turli xil qaychilar (to'g'ri, filirovkali), ustara va trimmerlarning xususiyatlari, ularning kesishga ta'siri va qaysi vaziyatda qaysi asbobdan foydalanish samaraliroq ekanligi Ish jarayonida sartaroshning o'z tanasini to'g'ri joylashtirish, harakatlarini optimallashtirish va charchoqni kamaytirish bo'yicha bilimlar. Shikastlangan, ingichka yoki kimyoviy ishlov berilgan sochlarni kesishning o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyot choralari
	B2.03.3 Sochga shakl berish (turmaklash) qayta ishlash va yakunlash	Mehnat harakatlari: 1. Sochning turiga va xohlagan turmakka mos ravishda fen (diffuzer, nasadka bilan), dazmol yoki boshqa asboblardan foydalanib, to'g'ri quritish usulini tanlash 2. Sochning ildizlariga hajm berish, uchi va o'rta qismlarida kerakli teksturani hosil qilish uchun taroq, shchiotka va mahsulotlardan foydalanish 3. Mijozning istagiga ko'ra (masalan, tekislash, jingalak qilish, to'lqin hosil qilish, yig'ma turmak yaratish) tegishli turmaklash texnikasini qo'llash

		4. Turmaklash jarayonida yuzaga kelgan kichik kamchiliklarni to'g'rilash, sochning notekis joylarini qayta ishlash yoki qo'shimcha mahsulotlar bilan mustahkamlash
		5. Turmakning uzoq vaqt saqlanishi uchun lak, gel, spreylar kabi maxsus fiksatorlardan me'yorida foydalanish
		6. Turmakning umumiy ko'rinishini, simmetriyasini va mijozga qanchalik mos tushganligini vizual baholash
		7. Turmakni uy sharoitida saqlash, parvarish qilish va qayta turmaklash bo'yicha qisqa, ammo amaliy tavsiyalar berish
		Ko'nikma:
		Fen, dazmol, jingalaklash uskunasi, turli shchiotkalar kabi asboblarni turli soch turlarida samarali va xavfsiz qo'llash. Bu asboblarning haroratini va tezligini to'g'ri sozlashni o'z ichiga oladi
		Sochni ildiz qismidan ko'tarish, uchlariga to'g'ri shakl berish va umumiy hajm balansi yaratish. Bu turmakning uzoq vaqt saqlanishi uchun asosdir
		Sochni kesishda to'g'ri burchak ostida ushlash (0, 45, 90, 180 daraja) va tortish kuchini sozlay olish. Bu sochning hajmi, shakli va harakatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega
		Sochga jonlilik va tabiiy ko'rinish berish uchun tekstura berish (masalan, to'g'rilash, slaying, nuqtali kesish) ko'nikmalarini qo'llay olish
		Sochga jonlilik, yumshoqlik yoki aniq chiziqlar berish uchun turli teksturizatsiya usullarini qo'llash. Bu sochning tabiiy harakatini kuchaytiradi
		Turmakni barqaror qilish uchun lak, sprej, gel kabi fiksatorlarni me'yorida va to'g'ri qo'llash. Bu turmakning buzilmasdan qolishini ta'minlaydi
		Mijozning yuz xususiyatlari, sochining holati va uning shaxsiy uslubiga qarab turmaklashni individual tarzda moslashtirish
		Tayyor turmakning umumiy ko'rinishini, mutanosibligini va mijozga qanchalik mos kelishini tanqidiy baholay olish. Zarur bo'lsa, kichik tuzatishlar kiritish
		Bilim:
		Turli xil soch turmaklash usullari (masalan, tekislash, jingalak qilish, to'lqinli, yig'ma turmaklar, tarash) va ularning har birining o'ziga xos xususiyatlari, qo'llanilish ketma-ketligi
		Turmaklash va fiksatsiya uchun ishlatiladigan mahsulotlarning (muss, gel, lak, sprej, termo-himoya) tarkibi, ularning sochga ta'siri va qaysi turdagi sochga mos kelishi
		Sochga fen yoki dazmol bilan ishlov berishda haroratning sochga ta'siri, sochni shikastlamaslik qoidalari va himoya usullari
		Sochning namlikka, issiqlikka va kimyoviy mahsulotlarga reaksiyasi, shuningdek, turmaklash jarayonida uning tuzilishini hisobga olish
		Turmakda hajm, harakat va nisbatlarning vizual uyg'unligi, yuzning shakli bilan turmakning mutanosibligini bilish
	Mas'uliyat va mustaqillik:	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik

		Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish
B3.3 Soch bo'yash va rang berish	B3.01.3 Mijoz bilan konsultatsiya va rang tanlash, koloristika bilimlarini qo'llash	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning orzu qilgan rangni, uslubni va kutgan natijalarni diqqat bilan eshitish, uning xohishlarini to'liq tushunishga harakat qilish
		2. Mijozning sochining hozirgi rangini, oldingi bo'yash tarixini, sochning sifatini (masalan, tolalarning holati, o'tkazuvchanligi) va bosh terisi sezuvchanligini vizual hamda palpatsiya orqali aniqlash
		3. Mijozning terisi tag-ohangini (issiq, sovuq, neytral) aniqlash. Bu unga eng mos keladigan rang palitrasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega
		4. Rang palitrasini, namunalarni yoki raqamli vizualizatsiya vositalarini ishlatib, mijozga turli xil rang variantlarini ko'rsatish. Har bir variantning afzalliklari va mijozga qanday tushishi haqida izoh berish
		5. Asosiy ranglar, ikkilamchi ranglar, uchlamchi ranglar, o'zaro bir-birini bekor qiluvchi ranglar (neytralizatorlar) va ularning sochda qanday ishlashini hisobga olgan holda rang tanlash
		6. Mijozning hozirgi soch rangidan kelib chiqqan holda, uning orzu qilgan rangiga erishish mumkin bo'lgan realistik natijalar haqida ogohlantirish (masalan, qora sochni birdaniga oqartirishning qiyinligi)
		7. Bo'yoq allergiyasi xavfini oldini olish maqsadida, kerak bo'lsa, terida test o'tkazishni taklif qilish va uning natijasini baholash
		8. Mijozning xohishi, soch holati va koloristika qoidalariga asoslanib, bo'yoqning turi, rang kodi, oksidant foizi va aralashma nisbatlarini aniq belgilash
		9. Rangning uzoqroq saqlanishi va soch salomatligi uchun bo'yashdan keyingi parvarish mahsulotlari va usullari haqida ma'lumot berish
		Ko'nikma:
		Mijoz sochining holatini (quruqlik, shikastlanish, o'tkazuvchanlik), oldingi bo'yashlar va bosh terisining sezuvchanligini aniq baholash. Bu to'g'ri rang va bo'yoq turini tanlashga yordam beradi
		Mijozning hozirgi soch rangidan kelib chiqqan holda, yakuniy rangning qanday ko'rinishini tasavvur qila olish va buni mijozga tushunarli qilib yetkaza bilish
		Mijozning istaklarini tinglash, savollar berish va unga rang tanlash jarayonida to'g'ri maslahat berish orqali o'zaro ishonchli munosabat o'rnatish
		Agar mijozning xohlagan rangi uning sochiga mos kelmasa yoki erishish qiyin bo'lsa, unga realistik va estetik jihatdan jozibador muqobil variantlarni taklif qila bilish
		Mijozning istalgan rangiga erishish uchun turli bo'yoq ranglari, oksidantlar va qo'shimchalarni to'g'ri nisbatda aralashtirish mahorati
		Bilim:
		Rang doirasi (asosiy, ikkilamchi, uchlamchi ranglar), ranglarning bir-biriga ta'siri, sovuq va issiq ohanglar, shuningdek, ranglarni

		neytrallash prinsiplari. Bu to'g'ri rang kombinatsiyasini tanlash uchun asosdir
		Doimiy, yarim-doimiy, vaqtinchalik bo'yoqlar, oqartirgichlar va toniklar kabi turli xil bo'yoq mahsulotlarining tarkibi, ularning sochga ta'siri va qo'llanilish xususiyatlari
		Sochning g'ovakligi (porosity), qalinligi va boshqa individual xususiyatlarining rangning qanchalik singishi va qanday ko'rinishiga ta'siri
		Mijozning teri ohangini (issiq, sovuq, neytral) aniqlash va unga mos keladigan soch ranglarini tanlash bo'yicha bilim. Bu mijozning tashqi ko'rinishini uyg'unlashtiradi
		Bo'yoq tarkibidagi potentsial allergenlar, allergiya testini o'tkazish qoidalari va mijozning xavfsizligini ta'minlash choralari
		Rangni saqlash, sochni tiklash va uning salomatligini ta'minlash uchun mo'ljallangan parvarish mahsulotlari va uy sharoitida qo'llaniladigan usullar haqida ma'lumot
		Ombre, balayaj, shatush, highlight, lowlight kabi zamonaviy bo'yash texnikalari va rang berishdagi eng so'nggi tendentsiyalar
	B3.02.3 Soch bo'yash texnikalarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Bo'yash jarayoni uchun zarur bo'lgan bo'yoq, oksidant, idishlar, cho'tkalar, himoya vositalari (qo'lqop, fartuk) va soch qisqichlarini tayyorlash. Mijozning kiyimini himoya qilish uchun yopinchiqni to'g'ri o'rash
		2. Sochni bo'yashga tayyorlash: Kerak bo'lsa, sochni tozalash, tarash va bo'yash texnikasiga mos ravishda qismlarga ajratish. Bu bo'yoqning bir tekis taqsimlanishini ta'minlaydi
		3. Tanlangan rang retseptiga muvofiq bo'yoq va oksidantni aniq nisbatda, bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtirish
		4. Tanlangan bo'yash texnikasiga (masalan, to'liq bo'yash, ildizlarni bo'yash, melirlash, balayaj) muvofiq bo'yoqni sochga ehtiyotkorlik bilan, bir tekis va tez surish. Sochning barcha qismlariga yetib borishini ta'minlash
		5. Bo'yoqning ko'rsatmalarda berilgan ta'sir vaqtiga qat'iy rioya qilish. Bu kutilgan rangni olish va sochga zarar yetkazmaslik uchun muhim
		6. Ta'sir muddati tugagach, bo'yoqni sochlarni shikastlamasdan iliq suv bilan to'liq yuvish. Keyin bo'yoq qoldiqlarini neytrallash va sochni yuvish uchun maxsus shampun va konditsioner qo'llash
		7. Sochni quritib, rangning to'g'ri chiqqanligini, bir tekis taqsimlanganligini va mijozga mos kelishini tekshirish. Kerak bo'lsa, kichik tuzatishlar kiritish
		Ko'nikma:
		Bo'yoqni sochga bir tekis, aniq va tez surish, kerakli bo'limlarda ishlay olish. Bu rangning bir xil chiqishini ta'minlaydi
		Berilgan retseptga muvofiq bo'yoq va oksidantni to'g'ri nisbatda, bir xil konsistensiyada aralashtirish

		To'liq bo'yash, ildizlarni bo'yash, melirlash, balayaj, shatush kabi turli bo'yash texnikalarini amalda mahorat bilan qo'llay olish. Har bir texnikaning o'ziga xos surish usulini bilish
		Bo'yoqning ta'sir vaqtini aniq nazorat qilish va jarayonni belgilangan muddatda yakunlash
		Bo'yash jarayonida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, mijozni va o'zini bo'yoqdan himoya qilish, ish joyini toza tutish
		Bo'yoqni teriga tegizmasdan, soch tolasiga singdirib surish. Bu rangning chiroyli chiqishini va terini tirnash xususiyatini kamaytirishni ta'minlaydi
		Bo'yalgan sochni quritgandan so'ng rangning to'g'riligini baholash va zarur bo'lsa, kichik kamchiliklarni bartaraf etish
		Bilim:
		Har xil turdagi soch bo'yoqlarining (ammiakli, ammiaksiz, yarim-doimiy va h.k.) kimyoviy tarkibi, ularning soch tolasi bilan o'zaro ta'siri va kutilgan natijalar
		Turli oksidant foizlarining (masalan, 3%, 6%, 9%, 12%) rangni ochish darajasi va sochga ta'siri haqida bilim
		Soch tolasining bo'yoqni shimib olish qobiliyati va uning rangning intensivligiga ta'siri. G'ovak sochlarni bo'yashda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar
		Istalmagan rang ohanglarini (sariq, qizil, to'q sariq) bartaraf etish uchun qaysi neytrallashtiruvchi ranglardan foydalanish kerakligini bilish
		Bo'yoqni sochning barcha qismlariga bir xil miqdorda surish usullari va rang dog'larining oldini olish yo'llari
		Har bir bo'yoq mahsulotining qo'llash bo'yicha maxsus ko'rsatmalari, xavfsizlik qoidalari va tavsiya etilgan ta'sir vaqtlari
	B3.03.3 Texnik mahorat jarayonni nazorat qilish va yakunlash	Mehnat harakatlari:
		1. Bo'yoqning sochda qanday rang berayotganini va mijozning bosh terisi reaksiya ko'rsatayotganini doimiy vizual nazorat qilish. Bu kutilmagan natijalarning oldini olishga yordam beradi
		2. Bo'yoq ishlab chiqaruvchisining tavsiyalariga va sochning individual holatiga qarab, bo'yoqning ta'sir vaqtini moslashtirish. Bu rangning to'g'ri chiqishi va sochga minimal zarar yetkazishni ta'minlaydi
		3. Bo'yoq ta'sir muddati tugagach, sochni toza suv bilan, bo'yoq qoldig'i butunlay ketguncha yaxshilab yuvish
		4. Bo'yashdan keyin sochni neytrallashtirish va parvarish qilish uchun maxsus shampun va konditsioner (yoki maska) qo'llash. Bu rangning mustahkamligini oshiradi va sochni yumshatadi
		5. Sochni ehtiyotkorlik bilan quritish va yakuniy rangni, uning bir tekis taqsimlanganligini va mijozning istaklariga mos kelishini vizual tarzda tekshirish
		6. Agar rangda kichik nomutanosibliklar yoki o'zgarishlar talab qilinsa, joyida to'g'rilash (masalan, tonik yordamida ohangni o'zgartirish)
		7. Bo'yalgan sochni uy sharoitida to'g'ri parvarishlash, rangini saqlash va keyingi tashriflar uchun tavsiyalar berish

		Ko'nikma:
		Bo'yoqning sochda rivojlanishini, rangning o'zgarishini va mijoz terisining reaksiyasini doimiy, diqqat bilan kuzatib borish. Bu rang natijasini oldindan bashorat qilish va muammolarni oldini olish imkonini beradi
		Bo'yoq ta'sirining boshlanishi va tugash vaqtini aniq nazorat qilish, sochni shikastlamasdan istalgan rangga erishish uchun optimal muddatni saqlash
		Bo'yoq qoldiqlarini sochlarni shikastlamasdan va bosh terisini tirnamasdan to'liq yuvib tashlash. Bu rangning uzoqroq saqlanishiga yordam beradi
		Soch quritilgandan so'ng rangning bir tekisligini, intensivligini va mijozning istaklariga qanchalik mos kelishini ob'ektiv baholash
		Agar rangda kichik kamchiliklar bo'lsa, ularni bartaraf etish uchun tez va samarali choralarni ko'rish (masalan, tonik qo'llash, kichik bo'yoq korreksiyalari)
		Rangli sochlarni uyda to'g'ri parvarishlash, rangni saqlash va keyingi xizmatlar uchun amaliy tavsiyalar berish
		Bilim:
		Bo'yoqning sochda qanday rivojlanishi, rang pigmentlarining soch tolasiga qanday singishi va turli bazalarda rangning o'zgarishi haqidagi bilim
		Soch turining (masalan, ingichka, qalin, shikastlangan) bo'yoqqa reaksiyasi, rangning qanchalik tez o'tishi va rang berish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar haqida bilim
		Istalmagan ohanglarni (qizil, sariq, to'q sariq) bartaraf etish uchun ishlatiladigan neytrallovchi ranglar va korrektorlarning vazifasi va ularni to'g'ri qo'llash
		Rangli sochlarga mo'ljallangan shampunlar, konditsionerlar, maskalar va spreylarning xususiyatlari, ularning rangni himoya qilish va sochni tiklashdagi roli
		Bo'yoq moddalarining xavfsizligi, terida allergiya reaksiyalarining oldini olish va favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha bilim
		Mijozga rangning uzoqroq saqlanishi uchun uy sharoitida qilinishi kerak bo'lgan parvarish sirlari va xatolar haqida ma'lumot berish
	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik
		Muammolarni hal qilishda zaruratsdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish
B4.3 Sochni parvarishlash va davolash muolajalari	B4.01.3 Dagnostika va individual yondashuv	Mehnat harakatlari:
		1. Soch va bosh terisi holatini baholash: Mijozning soch va bosh terisini vizual tekshirish, palpatsiya qilish hamda muammolarni (masalan, kepek, quruqlik, yog'lilik, sinuvchanlik, soch to'kilishi) aniqlash. Bu chuqurlashtirilgan diagnostikaning ilk bosqichidir
		2. Soch parvarishi tartibi, ishlatiladigan mahsulotlar, ovqatlanish odatlari, stress darajasi va sog'liq holati haqida savollar berish. Bu muammolarning ildizini aniqlashga yordam beradi

		3. To'plangan ma'lumotlar asosida soch va bosh terisidagi muammolarning sabablarini mijozga tushunarli tilda tushuntirish
		4. Mijozning ehtiyojlari va muammolariga mos keladigan shaxsiy parvarish yoki davolash dasturini ishlab chiqish. Bu muolaja turlari va ularning ketma-ketligini belgilashni o'z ichiga oladi
		5. Mijozga mavjud parvarish va davolash muolajalarining turlarini (masalan, namlantiruvchi, oziqlantiruvchi, mustahkamlovchi, bosh terisi uchun pilinglar) va ularning kutilayotgan natijalarini tushuntirish
		6. Tanlangan muolajalarga mos keladigan professional parvarish mahsulotlarini (shampun, konditsioner, maska, losyon, sarum) tavsiya etish va ulardan uy sharoitida foydalanish bo'yicha ko'rsatma berish
		7. Muolajadan keyingi natijalar, ularning davomiyligi va erishish mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida mijoz bilan ochiq suhbatlashish
		Ko'nikma:
		Soch va bosh terisining turli muammolarini (masalan, quruqlik, yog'lilik, kepek, sezuvchanlik, soch to'kilishi, sinuvchanlik) aniq tashxislash. Bu vizual tekshiruv, palpatsiya va mijoz so'rovi orqali amalga oshiriladi
		Mijozning turmush tarzi, ovqatlanish odatlari, stress darajasi, sog'lig'i va ilgari ishlatgan parvarish mahsulotlari haqida muhim ma'lumotlarni yig'a olish va ularni tahlil qilib, muammoning ildizini topish
		Har bir mijozning noyob ehtiyojlariga mos keladigan shaxsiy parvarish yoki davolash dasturini yaratish. Bu muolajalar ketma-ketligi va davomiyligini belgilashni o'z ichiga oladi
		Mijozga mavjud parvarish va davolash usullarini (masalan, chuqur namlantirish, oziqlantirish, bosh terisi detoksifikatsiyasi, anti-stress muolajalar) tushunarli tarzda tavsiya qilish
		Tanlangan muolajalarning potentsial natijalarini, ularning davomiyligini va mijoz uchun realistik kutishlarni aniq belgilash
		Bilim:
		Bosh terisi va sochning keng tarqalgan kasalliklari (masalan, seboreya, psoriasis, alopesiya turlari, dermatitlar) haqida tibbiy asosdagi bilimlar. Bu muammolarni aniqlash va zarurat tug'ilganda dermatologga yo'naltira olishni anglatadi
		Soch va bosh terisi muammolarining fiziologik sabablari, ularning yuzaga kelish mexanizmlari va ularni bartaraf etish usullari
		Turli xil parvarish va davolash mahsulotlarining (shampunlar, konditsionerlar, maskalar, sarumlar, losyonlar) kimyoviy tarkibi, ularning aktiv ingredientlari va sochga ta'sir qilish mexanizmlari
		Sochni parvarishlashda ishlatiladigan zamonaviy apparatlar (masalan, darsonval, bug'latgichlar, lazer taroqlar) va ularning ta'sir prinsiplari
		Ovqatlanish, stress, uyqu tartibi va boshqa turmush tarzi omillarining soch va bosh terisi salomatligiga ta'siri haqida umumiy tushuncha
		Muolajalar davomida asbob-uskunalarining sterilizatsiyasi, dezinfeksiyasi va umumiy gigiyenik talablarga qat'iy rioya qilish

	B4.02.3 Maxsus parvarish muolajalarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Muolaja turiga qarab, sochni maxsus shampun bilan tozalash, ortiqcha namligini olish yoki zarur bo'lsa, quritish. Bu mahsulotlarning samarali singishini ta'minlaydi
		2. Tanlangan parvarish mahsulotini (maska, ampula, sarum, losyon) soch yoki bosh terisiga, belgilangan miqdorda va to'g'ri texnikada surish. Bu mahsulotning maqsadli joyga yetib borishini ta'minlaydi
		3. Mahsulotning ko'rsatmalarda belgilangan ta'sir vaqtiga qat'iy rioya qilish. Ba'zan bu issiqlik (bug', termo-shapka) yordamida kuchaytirilishi mumkin
		4. Agar muolaja bosh terisi uchun mo'ljallangan bo'lsa, mahsulotni singdirish va qon aylanishini yaxshilash uchun bosh terisini muloyimlik bilan massaj qilish
		5. Ta'sir muddati tugagach, mahsulotni sochni shikastlamasdan iliq suv bilan yaxshilab yuvish. Ba'zida mahsulot yuvilmaydi va keyinchalik turmaklash amalga oshiriladi
		6. Agar muolaja maxsus apparat (masalan, bug'latgich, darsonval, ozon-terapiya apparati) talab qilsa, uni to'g'ri sozlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlatish
		7. Muolaja yakunida soch yoki bosh terisi holatining o'zgarishini vizual va hissiy jihatdan baholash, mijozning fikrini so'rash
		8. Muolaja ta'sirini uzoqroq saqlash uchun mijozga uy sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan parvarish mahsulotlari va usullari haqida aniq va tushunarli ko'rsatma berish
		Ko'nikma:
		Har bir turdagi parvarish mahsulotini (maskalar, ampulalar, sarumlar, losyonlar) soch yoki bosh terisiga aniq va to'g'ri texnikada surish. Bu mahsulotning maqsadli joyga to'liq yetib borishi va samarali ishlashini ta'minlaydi
		Bosh terisida qon aylanishini yaxshilash, mahsulotlarni chuqurroq singdirish va mijozga dam berish uchun tegishli massaj usullarini qo'llay olish
		Bug'latgichlar, darsonval, ozon-terapiya apparatlari kabi zamonaviy uskunalarini to'g'ri sozlash, ishlatish va ularning xavfsizligini ta'minlash
		Muolaja mahsulotlarining ta'sir vaqtini aniq kuzatish va belgilangan muddatga qat'iy rioya qilish
		Muolaja jarayonida ishlatiladigan barcha asbob-uskunalarini dezinfeksiya va sterilizatsiya qilish qoidalariga amal qilish
		Muolaja yakunida soch va bosh terisining holatini vizual va palpator usulda baholash, erishilgan o'zgarishlarni aniqlash
		Bilim:
		Turli xil maxsus parvarish vositalarining (masalan, keratinli, kollagenli, vitamin kompleksli, o'simlik ekstraktli) tarkibi, ularning asosiy komponentlari va soch hamda bosh terisiga ta'sir qilish mexanizmlari

		Har bir parvarish muolajasining (masalan, chuqur namlantirish, oziqlantirish, detoksifikatsiya, soch to'kilishiga qarshi) asosiy maqsadi, uning afzalliklari va kutilgan natijalari Sochning shikastlanish turlari, bosh terisi kasalliklari (kepek, seboreya, quruqlik) va ularning sabablari haqida chuqur bilim Har xil turdagi go'zallik salonlarida ishlatiladigan parvarish apparatlarining ishlash prinsiplari, ularning soch va bosh terisiga ta'siri hamda xavfsizlik choralari Allergiya reaksiyalari, terining sezuvchanligi va boshqa sog'liqqa oid cheklovlarni hisobga olish, zarur hollarda ehtiyot choralari ko'rish
	B4.03.3 Mahsulotlar va asbob-uskunalar bilan ishlash	Mehnat harakatlari: 1. Kerakli parvarish yoki davolash mahsulotlarini (shampun, konditsioner, maska, sarum, losyon, ampula) ularning turiga va miqdoriga qarab tayyorlash. Bu to'g'ri dozalashni ta'minlaydi. 2. Muolaja uchun zarur bo'lgan har qanday apparat (masalan, bug'latgich, darsonval, mikrokamera) yoki qo'l asboblari (taroq, shchytka) ning to'g'ri ishlashini tekshirish va ularni muolajaga mos ravishda sozlash 3. Mahsulotlar va asbob-uskunalar bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan (qo'lqop, himoya ko'zoynagi) foydalanish, mijozning himoyasini ta'minlash 4. Tanlangan mahsulotni soch yoki bosh terisining kerakli joylariga, instruksiyaga qat'iy rioya qilgan holda, bir tekis va samarali surish 5. Agar muolaja apparat talab qilsa, uni xavfsizlik qoidalari va ishlatish yo'riqnomasiga binoan, to'g'ri va samarali tarzda ishlatish 6. Muolaja tugagach, barcha ishlatilgan asbob-uskunalarni tozalash, dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish. Mahsulot qoldiqlarini to'g'ri utilizatsiya qilish 7. Ishlatiladigan asbob-uskunalarining muntazam texnik holatini tekshirish va zarur bo'lsa, ularni ta'mirlash yoki almashtirish choralari ko'rish Ko'nikma: Har xil turdagi professional parvarish asboblarini (masalan, bug'latgichlar, mikrokameralar, darsonval apparatlari) to'g'ri, xavfsiz va samarali ishlatish. Bu ularning funksiyalarini tushunish va optimal natija uchun sozlay olishni anglatadi Har bir mahsulotni mijozning soch turi, muammosi va holatiga qarab aniq miqdorda va to'g'ri nisbatda dozalash. Ortiqcha yoki kam mahsulot ishlatishning oldini olish Barcha ishlatilgan asbob-uskunalarni har foydalanishdan keyin to'g'ri tozalash, dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish protokollariga qat'iy rioya etish. Bu mijozlar va xodimlar xavfsizligini ta'minlaydi Asbob-uskunalarining ishidagi kichik nosozliklarni tezda aniqlash va ularni bartaraf etish yoki tegishli mutaxassisga murojaat qilish Ishlatilgan mahsulotlar va boshqa chiqindilarni atrof-muhit talablariga muvofiq tarzda utilizatsiya qilish Bilim:

		Professional parvarish mahsulotlarining (shampunlar, maskalar, sarumlar, davolash ampulalari) kimyoviy tarkibi, ularning aktiv ingredientlari va soch hamda bosh terisiga ta'sir qilish mexanizmlari
		Har bir parvarish muolajasi va mahsuloti uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan qo'llanilish ketma-ketligi va ta'sir vaqtlari
		Kimyoviy mahsulotlar bilan ishlashda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish, terining tirnishi yoki allergiya reaksiyalarining oldini olish bo'yicha bilimlar
		Go'zallik salonlarida ishlatiladigan asosiy asbob-uskunalarining texnik tuzilishi, ishlash prinsiplari va ularni muntazam texnik ko'rikdan o'tkazish zaruriyati
		Atrof-muhitni himoya qilishga oid qoidalar va mahsulotlarni utilizatsiya qilish bo'yicha amaldagi qonunchilik talablari
		Barcha mahsulotlarning yaroqlilik muddatlari va saqlash sharoitlari haqida bilim. Muddati o'tgan mahsulotlarni ishlatmaslik
	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik
		Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish
Texnik va/yoki texnologik talab		-

Kasbning nomi	Erkaklar sartaroshi (Barbering)	
Mashg'ulot nomining kodi	51410	
TMR bo'yicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yiladigan talablar	Ta'lim darajasi umumiy o'rta ta'lim bo'lganda 1 yillik amaliy tajriba talab etiladi	
Mehnatga layoqati va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	1) boshlang'ich professional ta'lim 2) o'rta maxsus ta'lim 3) umumiy o'rta ta'lim bo'lganda norasmiy (informal) ta'lim yoki 1 yillik amaliy tajriba talab etiladi.	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Ta'lim darajasi umumiy o'rta ta'lim bo'lganda norasmiy (informal) ta'lim talab etiladi	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	14390027 Sartaroshxona mudiri 3	
	51410003 Imidjmayker (stilist) 4	
	51410004 Sartarosh-modelyer 3	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	51420002 Kosmetolog
		Barber

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.3 Soch kesish va shakl berish	D1.01.3 Konsultatsiya, sochni tayyorlash, ajratish va kesish	Mehnat harakatlari:
		1. Ehtiyojlarni aniqlash: Mijozning istaklarini sinchiklab tinglash, ularning turmush tarzi, yuz shakli va sochni parvarish qilish odatlarini inobatga olgan holda maslahatlar berish. Bu bosqichda mijozning oldingi soch turmagi va yangi uslubga bo'lgan kutgan natijalari muhokama qilinadi
		2. Professional takliflar: Sochning tuzilishi, sifati va bosh terisi holatini baholab, mijozga eng mos keladigan soch turmagi va kesish texnikasini tavsiya qilish. Zarur bo'lsa, uslubni o'zgartirish bo'yicha sababli asoslar bilan takliflar berish
		3. Mijozning xohishlari bilan amaliy imkoniyatlarni solishtirish, natijada erishiladigan yakuniy ko'rinish haqida aniq tasavvur hosil qilish. Bu kelishmovchiliklarning oldini oladi
		4. Tozalash va parvarish: Sochni kesishdan oldin uning toza va gigiyenik holatini ta'minlash. Kerak bo'lsa, sochni yuvish va holatini yaxshilovchi vositalar (konditsioner) qo'llash. Bu kesish jarayonini osonlashtiradi va yaxshi natija beradi
		5. Namlikni nazorat qilish: Sochni kesish uchun optimal namlik darajasini ta'minlash. Ba'zi kesish texnikalari uchun soch biroz nam

	bo'lishi talab etiladi, boshqalarida esa quruq soch ustida ishlash qulayroq bo'ladi
	6. Asboblarni tayyorlash: Kesish jarayonida ishlatiladigan asbob-uskunalarini (qaychi, tarash mashinkasi, taroqlar) sterillash va ularni ish holatiga keltirish
	7. Qismlarga bo'lish: Kesish jarayonini soddalashtirish va aniqlikni ta'minlash maqsadida sochni logik va simmetrik qismlarga ajratish. Bu har bir qismni alohida va tizimli ravishda ishlash imkonini beradi
	8. Fiksatsiya: Ajratilgan soch qismlarini maxsus qisqichlar yoki boshqa vositalar yordamida mahkamlash. Bu kesish paytida boshqa soch qismlarining xalaqit berishining oldini oladi va aniqlikni oshiradi
	9. Texnikani qo'llash: Mijozning istaklari va soch turiga mos keladigan kesish texnikalarini (graduirovka, filirovka, to'g'ri kesish va hokazo) malakali qo'llash. Har bir harakatning aniq va professional bajarilishini ta'minlash
	10. Simmetriya va mutanosiblik: Kesish jarayonida boshning anatomik xususiyatlarini inobatga olgan holda simmetriya va mutanosiblikka erishish. Bu yakuniy soch turmagining estetik ko'rinishi uchun juda muhim
	11. Tugallash va detallash: Kesishni yakunlashda mayda detallarga e'tibor berish, soch turmagining aniq va yakuniy shaklini berish. Zarur bo'lsa, qirralarni tekislash va ortiqcha tuklarni olib tashlash
	12. Doimiy baholash: Kesish jarayonida va har bir bosqichdan so'ng soch turmagini turli burchaklardan baholash, mijozning oldingi kutgan natijalari bilan solishtirish
	Ko'nikma:
	Klassik kesish usullari: Qaychi va taroq yordamida soch uzunligini bir xil saqlagan holda tekis va aniq kesish
	Filirovka va graduirovka: Soch hajmiga effekt berish, zichligini kamaytirish yoki bosqichli shakl berish texnikalari
	Mashinka bilan ishlash: Turli nasadkalar yordamida soch uzunligini nazorat qilish va aniq konturlar yaratish
	Fade (o'tish) texnikasi: Soch uzunligini pastdan tepaga silliq o'tkazish, turli darajadagi o'tish effektlarini yaratish
	Sochni fen bilan quritish va shakl berish usullari
	Turli stilizatorlar (gel, mum, lak) yordamida soch turmagiga barqarorlik va estetika berish
	Mijozning yuz tuzilishiga mos soch turmagini yaratish qobiliyati
	Soqolni kesish va shakl berishning zamonaviy va klassik usullari
	Xot (issiq) soqol olish texnikasi va terini parvarishlash
	Mo'ylovga shakl berish va parvarishlash
	Har foydalanishdan so'ng asboblarni to'g'ri tozalash, dezinfeksiya qilish va sterilizatsiya qilish usullarini bilish va amalga oshirish
	Ish stolini, ustara va sochiqlarni doimiy toza saqlash va sanitariya normalariga rioya qilish
	Sartaroshning o'zi ham doimiy toza va ozoda bo'lishi, mijozlarda yaxshi taassurot qoldirish

		Soch yoki bosh terisi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va zarur bo'lsa, mutaxassisga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar berish
		Sohadagi yangi texnologiyalar, uslublar va mahsulotlarni o'rganishga ochiqlik
		Mijozlar bazasini shakllantirish, xizmat narxlarini belgilash, xarajatlarni nazorat qilish va reklama qilish
		Bilim:
		Sochning anatomik tuzilishi (ildiz, poya, qatlamlar), uning kimyoviy tarkibi va o'sish sikllari haqida chuqur bilim
		Bosh terisining tuzilishi, keng tarqalgan teri kasalliklari (qazg'oq, dermatit, soch to'kilishi) va ularni aniqlash, shuningdek, sanitariya-gigiyena normalariga rioya qilish usullari
		Turli xil soch turlari (tekis, jingalak, qalin, ingichka, yog'li, quruq) va ularning xususiyatlari, parvarishlash usullari haqida ma'lumot
		Soch va soqol parvarishi uchun mo'ljallangan shampunlar, konditsionerlar, maskalar, balzamlar va stilizatorlarning turlari, ularning tarkibi, xususiyatlari va qo'llash qoidalari. Mijozga to'g'ri mahsulotni tavsiya qilish
		Sartaroshlik asbob-uskunalarini dezinfeksiya qilish va sterillashning standartlari, usullari va vositalari. Infektsiyalarning tarqalishini oldini olish
		Sartaroshning shaxsiy gigiyenasi, kiyinish madaniyati va ish joyini toza saqlashning mutlaq talablari
		Sartaroshlik sohasidagi eng so'nggi tendensiyalar, moda yo'nalishlari va klassik uslublar haqida doimiy bilimga ega bo'lish
D2.3 Soqol va mo'ylov bilan ishlash (erkaklar sartaroshligi uchun)	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik
		Muammolarni hal qilishda zaruratsdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish
	D2.01.3 Soqol va mo'ylovni shakllantirish va kesish	Mehnat harakatlari:
		1. Mijozning yuz shakli va soch o'sish yo'nalishini inobatga olgan holda professional tavsiyalar berish
		2. Soqol olish yoki kesishdan avval yuz terisini tozalash va tayyorlash. Issiq sochiq (xot kompress), maxsus soqol olishdan oldin qo'llaniladigan moylar yoki kremlar yordamida terini yumshatish va tuklarni ko'tarish. Bu jarayon kesishni osonlashtiradi va terining tirnash xususiyatini kamaytiradi
		3. Asboblarni tayyorlash: Ishlatiladigan asboblarni (ustara, qaychi, trimmer, tarash mashinkasi) sterillash, o'tkirligini tekshirish va ish holatiga keltirish
		4. Soqolga shakl berish (trimmer/qaychi bilan): Mijozning xohishiga ko'ra kerakli uzunlikni belgilash va trimmer yordamida dastlabki shaklni berish. Detallar va aniq chiziqlar uchun qaychi va taroqdan foydalanish. Soqolning turiga qarab (masalan, to'liq soqol, echki soqol, kalta soqol) tegishli kesish texnikasini qo'llash
		5. Mo'ylovni kesish va shakl berish: Mo'ylovni yuz shakli va soqol uslubiga mos ravishda aniq qirqish va kerakli shaklni berish. Maxsus mo'ylov qaychilari yoki trimmerdan foydalanish

	6. Ko'piklash: Yuzga maxsus soqol ko'pigini bir tekis surtish, tuklarni yanada yumshatish va terini himoya qilish 7. Ustara bilan ishlash: O'tkir va sterillangan ustara yordamida tuk o'sish yo'nalishi bo'ylab ehtiyotkorlik bilan, bosimni to'g'ri nazorat qilgan holda soqol olish. Terini tarang tortish va ustaraning burchagini to'g'ri ushlash muhim 8. Ikkinchi o'tish (zarur bo'lsa): Ba'zi hollarda, mutlaq sillqlikka erishish uchun tuk o'sishiga qarshi ikkinchi marta o'tish. Bu jarayon yanada ehtiyotkorlikni talab qiladi 9. Konturlash va aniq chiziqlar yaratish: Soqol va mo'ylovning chegara chiziqlarini (bo'yin, yonoq, lab usti) aniq va simmetrik tarzda belgilash. Bu trimmer yoki ustara yordamida amalga oshiriladi 10. Terini tinchlantirish: Soqol olishdan so'ng terini yuvish va tirnash xususiyatini kamaytirish uchun sovutuvchi, tinchlantiruvchi balzam yoki losyon qo'llash 11. Soqol va mo'ylovni parvarishlash: Kesilgan soqol va mo'ylovga maxsus moylar, balzamlar yoki mumlar surtib, ularga kerakli ko'rinish berish va parvarishlash bo'yicha tavsiyalar berish 12. Yakuniy tekshiruv: Mijoz bilan birgalikda yakuniy natijani ko'rib chiqish, har qanday tuzatish yoki qo'shimcha ishni bajarish. Mijozning mamnunligini ta'minlash Ko'nikma: Texnika mahorati: Turli qaychi va tarash mashinkasi texnikalarini (klassik kesish, fade, tekstura berish, filirovka) mukammal qo'llash Stilizatsiya: Sochni fen bilan to'g'ri quritish, shakl berish va turli stilizatsiya vositalaridan (gel, mum, pomade) mohirona foydalanish Aniq konturlar: Soch chiziqlari, ensa va quloq atrofi konturlarini aniq va toza yaratish Proportsiya hissi: Yuz shakli, bosh anatomiyasi va mijozning istaklariga mos optimal soch uzunligi va hajmiga erishish Shakl berish: Soqol va mo'ylovga zamonaviy yoki klassik shakllarni berish, ularni mijozning yuziga moslash Ustara bilan ishlash: Xot (issiq) ustara bilan soqol olish texnikasini xavfsiz va silliq bajarish Trimmerdan foydalanish: Trimmer yordamida aniq chiziqlar va o'tishlarni yaratish Mijozning ehtiyojlari va istaklarini to'liq tushunish uchun diqqat bilan tinglash Soch va teri holatiga qarab professional maslahatlar berish, mahsulotlarni tavsiya qilish Mijozlarning noroziligini sokinlik bilan boshqarish va qoniqarli yechim topish Xizmat ko'rsatish jarayonini samarali rejalashtirish va belgilangan vaqtga rioya qilish Bilim: Teri turlari: Yuz terisi turlari (yog'li, quruq, sezgir, normal) va ularning soqol olish jarayoniga ta'sirini bilish. Har bir teriga mos parvarish usullarini aniqlash
--	--

		Teri kasalliklari: Soqol sohasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy teri muammolari (qizillik, akne, follikulit) haqida asosiy ma'lumotga ega bo'lish va ularda qanday chora ko'rishni bilish
		Soqol olish uchun ko'piklar, gellar, kremlar, soqoldan keyingi losyonlar va balzamlarning tarkibi, xususiyatlari va ularning teriga ta'sirini bilish
		Soqol va mo'ylovni parvarishlash uchun mo'ljallangan yog'lar, mumlar va balzamlarning turlari, ularni to'g'ri tanlash va qo'llash usullari
		Ustara, qaychi, trimmer kabi asboblarni to'g'ri dezinfeksiya qilish va sterillash bo'yicha qat'iy standartlar va protokollarni bilish va ularga rioya qilish
		Kesuvchi asboblardan ishlashda xavfsizlik qoidalarini bilish, mijoz va o'zining xavfsizligini ta'minlash
		Kichik kesilishlar sodir bo'lganda qon bilan aloqada bo'lish holatlarida qanday harakat qilish kerakligini bilish
		Turli davrlar va madaniyatlarda soqol va mo'ylov uslublarining o'zgarishini bilish, bu mijozlarga taklif qilinadigan uslublar doirasini kengaytirad
		An'anaviy va klassik soqol olish uslublari, jumladan, "wet shave" (ho'l soqol olish) texnikasining tarixiy va amaliy jihatlarini tushunish
		Mijozning istaklarini aniqlash, ularga aniq va tushunarli tilda maslahatlar berish uchun samarali muloqot strategiyalarini bilish
		Mijozning terisi yoki soqoliga ishlatiladigan mahsulotlarga allergik reaksiyalar ehtimolini aniqlash va ularning oldini olish choralari
	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik
D3.3 Bosh, soqol va mo'ylovni parvarishlash	D3.01.3 Soqol va mo'ylovni parvarishlash muolajalari	Mehnat harakatlari:
		1. Ehtiyojni aniqlash: Mijozning soqol va mo'ylovining joriy holatini baholash, uning istaklari (masalan, yumshatish, parlatish, o'stirish) va mavjud muammolari (quruqlik, qichishish) haqida ma'lumot olish. Mijozning turmush tarzi va parvarishlash odatlarini inobatga olgan holda individual parvarish rejasini shakllantirish
		2. Terini va tuklarni tayyorlash: Parvarish muolajasini boshlashdan avval yuz terisini va soqol/mo'ylov tuklarini tozalash. Issiq kompress yoki bug'lash yordamida teri teshiklarini ochish va tuklarni yumshatish. Bu mahsulotlarning samarali singishiga yordam beradi
		3. Maxsus shampunlash: Soqol va mo'ylov tuklarini maxsus mo'ljallangan shampun bilan yuvish, tuklar orasidagi kirlarni, yog'larni va qoldiq mahsulotlarni tozalash. Yuvish jarayonida terini uqalash (massaj qilish) orqali qon aylanishini yaxshilash
		4. Quritish: Tuklarni yumshoq sochiq bilan ehtiyotkorlik bilan quritish, ular namligini saqlagan holda ortiqcha suvni olib tashlash. Qattiq ishqalanishdan saqlanish
		5. Balzam yoki konditsioner qo'llash: Soqol va mo'ylov tuklarini yumshatish, ularga oqilona shakl berish va ularni parvarishlash uchun

		maxsus balzam yoki konditsioner surtish. Mahsulotni tuklarning ildizidan uchigacha bir tekis taqsimlash
		6. Moylash/Oziqlantirish: Soqol va mo'ylovni oziqlantiruvchi moylar (beard oil) yoki zardoblar (serum) yordamida chuqur namlash va oziqlantirish. Bu tuklarning sog'lom o'sishini ta'minlaydi, quruqlik va qichishishni kamaytiradi. Moyni teriga ham yengil uqalab singdirish
		7. Tuklarni tarash: Maxsus taroq yoki cho'tka yordamida soqol va mo'ylov tuklarini tarash va tartibga solish. Bu ularga toza va silliq ko'rinish beradi
		8. Shakl beruvchi vositalar: Zarur bo'lsa, mum (beard balm/wax) yoki boshqa shakl beruvchi vositalar yordamida soqol va mo'ylovga doimiy va estetik ko'rinish berish. Mijozning istagiga ko'ra aniq konturlar yaratish yoki hajm berish
		9. Mijozga uyda soqol va mo'ylovni to'g'ri parvarishlash bo'yicha shaxsiy tavsiyalar berish. Mos mahsulotlarni tanlash va ulardan foydalanish tartibini tushuntirish
		10. Muntazam parvarishning ahamiyatini tushuntirish va keyingi tashrif uchun tavsiya berish
		Ko'nikma:
		Holatni baholash: Mijozning soqol va mo'ylovining turi, qalinligi, o'sish yo'nalishi hamda bosh va yuz terisining holatini aniq baholash
		Ehtiyojni aniqlash: Mijozning parvarishlash bo'yicha ehtiyojlari va istaklarini aniq tushunish, ularning turmush tarziga mos keladigan parvarish rejasini ishlab chiqish
		Mahsulot tanlash: Har bir mijozning soqol/mo'ylov turi va terisi holatiga mos keladigan parvarish mahsulotlarini to'g'ri tanlash va tavsiya qilish
		Maxsus yuvish: Soqol va mo'ylovni maxsus shampunlar bilan samarali yuvish, tuklar orasidagi kirlarni va mahsulot qoldiqlarini to'liq bartaraf etish
		Teri uqalash (massaj): Yuvish jarayonida bosh va yuz terisini yengil massaj qilish texnikasini qo'llash, qon aylanishini yaxshilash
		To'g'ri quritish: Soqol va mo'ylovni namligini saqlagan holda, yumshoq va ehtiyotkorlik bilan quritish
		Mahsulotni qo'llash: Balzam, moy yoki zardob kabi parvarish mahsulotlarini tuklarga bir tekis va chuqur singdirish mahorati
		Ildizdan uchigacha parvarish: Tuklarning ildizidan uchigacha to'liq parvarishini ta'minlash, ularni mustahkamlash va sog'lom ko'rinish berish
		Moyni singdirish: Soqol moyini yuz terisiga yengil uqalab singdirish, terining namlanishi va oziqlanishini ta'minlash
		Tuklarni tarash: Maxsus taroq yoki cho'tkalar yordamida soqol va mo'ylov tuklarini aniq va tartibli tarash
		Estetik shakl berish: Mum, balzam kabi shakl beruvchi vositalar yordamida soqol va mo'ylovga kerakli va estetik jihatdan yoqimli shakl berish
		Konturlarni saqlash: Mavjud konturlarni saqlash yoki yangilarini yaratishda aniqlik va professionallik

		Mijozga uy sharoitida soqol va mo'ylovni parvarishlash bo'yicha amaliy va shaxsiy tavsiyalar bera olish
		Har bir parvarish mahsulotining qo'llanilishi va afzalliklari haqida tushunarli ma'lumot berish
		Muntazam parvarishning ahamiyatini mijozga tushuntirish va uning qiyofasiga ijobiy ta'sirini ko'rsatish
		Bilim:
		Har bir mijozning yuz shakli (oval, yumaloq, kvadrat, uzunchoq) va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlay olish. Soqol va mo'ylov uslubini tanlashda bu faktorlarning ahamiyatini bilish.
		Yuzdagi tuklarning tabiiy o'sish yo'nalishini tushunish, bu parvarish mahsulotlarini samarali qo'llash va tirnash xususiyatini kamaytirish uchun muhim.
		Yuz terisi turlari (yog'li, quruq, sezgir, normal) va ularning parvarish muolajalariga ta'sirini bilish. Har bir teriga mos parvarish usullarini va mahsulotlarini aniqlash.
		Soqol sohasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan umumiy teri muammolari (qizillik, akne, follikulit) haqida asosiy ma'lumotga ega bo'lish va ularda qanday chora ko'rishni bilish (masalan, mutaxassisga yo'naltirish)
		Soqol olish uchun ko'piklar, gellar, kremlar, soqoldan keyingi losyonlar va balzamlar, shuningdek, parvarish uchun mo'ljallangan moylar, mumlar va zardoblarning tarkibi, xususiyatlari va ularning teriga ta'sirini bilish
		Har bir mahsulotning maqsadini, qanday qo'llanilishini va optimal natijaga erishish uchun zarur bo'lgan miqdorini tushunish
		Mijozning terisi yoki soqoliga ishlatiladigan mahsulotlarga allergik reaksiyalar ehtimolini aniqlash usullari va ularning oldini olish choralari
		Soqol va mo'ylov bilan ishlashda foydalaniladigan asboblarni (taroq, qaychi, trimmer) to'g'ri tozalash, dezinfeksiya qilish va sterillash bo'yicha qat'iy standartlar va protokollarni bilish.
		Ish jarayonida yuqumli kasalliklarning tarqalishini oldini olish usullari va protokollari.
		Sartaroshning shaxsiy gigiyena qoidalari va ish joyini toza saqlashning muhimligini tushunish
		Zamonaviy va klassik soqol hamda mo'ylov uslublari, ularning yuz shakliga mosligini baholash
		Soqol va mo'ylovning yuz va bosh bilan uyg'unligini, shuningdek, uning umumiy qiyofaga ta'sirini tushunish
		Mijozning xohishlari bilan haqiqiy natijalar o'rtasidagi muvozanatni topish va ularning kutishlarini to'g'ri boshqarish
		Uy sharoitida soqol va mo'ylovni parvarishlash bo'yicha mijozga qimmatli maslahatlar bera olish, ularni to'g'ri mahsulotlarni tanlashga yo'naltirish
	Mas'uliyat va mustaqillik	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik
		Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish

Texnik va/yoki texnologik talab	-
--	---

Kasbning nomi	Imidjmeyster (stilist)	
Mashg'ulot nomining kodi	51410003	
TMR bo'yicha malaka darajasi	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etilmaydi	
Ish staji (amaliy tajriba)ga qo'yiladigan talablar	Ta'lim darajasi umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim bo'lganda 1 yillik amaliy tajriba talab etiladi	
Mehnatga layoqati va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	18 yoshga to'lgan bo'lishi; Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi.	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	1) o'rta professional ta'lim 2) umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim bo'lganda norasmiy (informal) ta'lim yoki 1 yillik amaliy tajriba	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	Ta'lim darajasi umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim bo'lganda norasmiy (informal) ta'lim talab etiladi	
Kasbiy standartlar reestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	14390027 Sartaroshxona mudiri 3	
	51410004 Sartarosh-modelyer 3	
	51410001 Ayollar sartaroshi 3	
	51410002 Erkaklar sartaroshi 3	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	51420002 Kosmetolog
		Barber

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
E1.4 Mijozning ehtiyojlarini aniqlash, yaratish va taklif etish	E1.01.4 Mijozning ehtiyojlarini aniqlash (Diagnostika va tahlil)	Mehnat harakatlari:
		1. Mijoz bilan erkin va ochiq muloqot qilish, uning o'zini qulay his etishini ta'minlash. Bu stilistga mijozning haqiqiy shaxsiyatini ochishga yordam beradi.
		2. Mijozning gaplarini diqqat bilan tinglash, uning xavotirlari, istaklari va oldingi tajribalarini tushunish. Tinglash orqali stilist muhim tafsilotlarni ilg'ab oladi.
		3. Savollar berish orqali mijozning shaxsiyati, turmush tarzi, kasbi, maqsadlari va qadriyatlari haqida ma'lumot olish. Masalan: "Siz qanday ko'rinishni xohlaysiz?", "Sizni nima

		bezovta qiladi?", "Odamlar sizni qanday qabul qilishini istaysiz?"
		4. Mijozning tana tuzilishini (masalan, olma, nok, to'g'ri to'rtburchak, qum soat) aniqlash. Bu unga mos kiyim uslublarini tanlash uchun muhim
		5. Yuzning shaklini (masalan, oval, yumaloq, kvadrat, uzunchoq) aniqlash, bu soch turmagi va aksessuarlarni tanlashda yordam beradi
		6. Mijozning rang turini (masalan, yoz, qish, bahor, kuz) aniqlash uchun terining rangi, sochlarning tabiiy rangi va ko'z rangini tahlil qilish. Bu unga mos keladigan ranglar palitrasini aniqlashda muhim
		7. Mijozning hozirgi garderobini tahlil qilish, uning kiyinish odatlarini, afzal ko'rgan ranglari va uslublarini aniqlash
		8. Mijozning kundalik faoliyati (masalan, ofis ishi, ijodiy kasb, o'qish, uy ishlari, sport) qanday ekanligini bilish
		9. Mijozning kasbiy maqsadlarini (masalan, lavozimga ko'tarilish, yangi ish topish, biznesda muvaffaqiyat qozonish) tushunish
		10. Mijozning kiyim va aksessuarlar uchun ajratgan budjetini aniqlash
		11. Mijozning tashqi ko'rinishiga oid qo'rquvlarini (masalan, eksperiment qilishdan qo'rqish, noto'g'ri tanlov qilishdan xavotirlanish) va cheklovlarini (masalan, allergiyalar, maxsus talablar) bilish
		12. Mijozga turli uslublar, ranglar va obrazlarning rasmlarini ko'rsatish va uning qaysilari yoqishi yoki yoqmasligini aniqlash
		13. Mijozning o'ziga yoqqan va yoqmagan moda ikonlari, uslublar yoki kiyim-kechaklar haqida so'rash
		14. Mijozda bunday tajribalar bo'lsa, ularni tahlil qilish va kelajakda ularni takrorlamaslik uchun sabablarini tushunish
		15. To'plangan barcha ma'lumotlarni tartibga solish va asosiy xulosalarni shakllantirish
		16. Mijozning maqsadlari, tana tuzilishi, rang turi va shaxsiyatiga mos keladigan umumiy imidj kontseptsiyasini ishlab chiqish
		17. Mijozga qanday kiyimlar, aksessuarlar va soch turmagi tavsiya etilishi kerakligi bo'yicha aniq rejani taqdim etish
		Ko'nikma:
		Hozirgi va kelajakdagi moda yo'nalishlari, brendlar, kolleksiyalar va dizaynerlar haqida chuqur bilimlarga ega bo'lish
		Turli davrlar va madaniyatlardagi kiyim uslublari haqida ma'lumotga ega bo'lish, bu mijozning shaxsiyatiga mos retro yoki zamonaviy uslublarni yaratishda yordam beradi
		Ranglarning inson psixikasiga ta'siri, ranglar uyg'unligi, terining rangi, soch va ko'z rangiga mos keladigan rang palitrasini aniqlay olish (masalan, rang turlari – "bahor", "yoz", "kuz", "qish")

		Har xil tana turlari (masalan, "olma", "nok", "to'g'ri to'rtburchak", "qum soati") uchun mos kiyim uslublari va siluetlarini aniqlay olish
		Turli matolarning xususiyatlari, ularning qanday ko'rinish berishi va qanday parvarish talab qilishi haqida ma'lumotga ega bo'lish
		Zargarlik buyumlari, sharflar, sumkalar, poyabzallar va boshqa aksessuarlarni asosiy kiyim uslubiga mos ravishda tanlay olish
		Mijozdan kerakli ma'lumotlarni olish uchun ochiq va to'g'ri savollar bera olish
		Yangi tendensiyalar, brendlar va xarid qilish joylari haqida ma'lumot izlash va topish
		Mijozlarni jalb qilish, xizmatlarni sotish, marketing va buxgalteriya yuritish kabi ko'nikmalar
		Bilim:
		Turli tarixiy davrlar (masalan, Renessans, Barokko, Art-deko, 20-asrning har o'n yilligi) va turli madaniyatlarda kiyim, soch turmagi va makiyajning qanday o'zgarganini bilish
		Moda sanoatida qo'llaniladigan barcha asosiy atamalar va tushunchalarni (masalan, haute couture, prêt-à-porter, kapsula garderob, siluet, drapaj) bilish
		Rang doirasi, ranglarning uyg'unlashish qoidalari (monoxrom, kontrast, analog ranglar), iliq va sovuq ranglar guruhlari haqida chuqur bilim
		Turli tabiiy (paxta, zig'ir, jun, ipak) va sintetik (polyester, viskoza, akril) matolarning xususiyatlari, ularning qanday tushishi, qanday parvarish talab qilishi va har bir mato turining qanday uslublarga mos kelishi haqida ma'lumot
		Allergiyaga moyil bo'lgan yoki nozik teriga ega mijozlar uchun qaysi matolarning mos kelishini bilish
		Mijozlar bilan ishlashda professional etika, maxfiylikni saqlash va shaxsiy ma'lumotlarga hurmat bilan qarash
		Turli moda brendlarining o'ziga xos uslubi, dizayn falsafasi va ular qaysi auditoriyaga mo'ljallanganligi haqida bilim
		O'z xizmatlarini qanday reklama qilish, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritish va mijozlar bazasini yaratish
		Mijozlar bilan ishlash strategiyalari
		Ba'zi stilistlar mijozlarga kiyimlarni virtual tarzda sinab ko'rish imkonini beruvchi ilovalar va dasturlardan foydalanishni bilishi
		Mijozning madaniy yoki diniy e'tiqodlariga hurmat bilan yondashish va ularga mos kiyim tanlash muhim
		Turli yosh guruhlari, ijtimoiy qatlamlar va geografik joylashuvdagi mijozlarning afzalliklari va ehtiyojlari haqida ma'lumot
		Kiyimlarning qulayligi va harakatlanish erkinligini ta'minlaydigan matolar va uslublar haqida bilim. Ayniqsa, uzoq muddat kiyiladigan yoki ma'lum bir faoliyat uchun mo'ljallangan kiyimlar tanlashda muhim

		Mijozlar bilan rasmiy shartnomalar tuzish, xizmat ko'rsatish shartlari va to'lov tartiblarini belgilash
		Stilist mustaqil ravishda ishlaydigan bo'lsa, o'z biznesini ro'yxatdan o'tkazish tartib-qoidalari va soliq majburiyatlari haqida asosiy bilimlarga ega bo'lishi shart
	E1.02.4 Imidjni yaratish (Konseptualizatsiya)	Mehnat harakatlari:
		1. Mijoz bilan dastlabki muloqot va ehtiyojlarni aniqlash (Briefing & Needs Assessment) Dastlabki suhbat o'tkazish, Maqsadlarni aniqlash, Turmush tarzi va kasbini tahlil qilish, Shaxsiy xususiyatlar va qadriyatlarini aniqlash, Byudjetni belgilash, Mijozning avvalgi stilistik tajribalari, nimadan qoniqmagani yoki nimani yoqtirganini bilish
		2. Tahlil va tadqiqot (Analysis & Research), Raqamli diagnostika, Rang tipini aniqlash, Stil yo'nalishlarini aniqlash, Inspiratsiya to'plash, Brendlar va do'konlarni tadqiq qilish
		3. Konseptualizatsiya va taklifni shakllantirish (Conceptualization & Proposal Development), Imidj konsepsiyasini ishlab chiqish, Vizual namoyish (Moodboard va Stil-kitob), Kapsula garderob rejasini tuzish, Soch turmagi va makiyaj bo'yicha tavsiyalar, Aksessuarlar tanlash strategiyasi, Imidj taqdimoti va tasdiqlash
		4. Rejalashtirish va keyingi bosqichlarga tayyorgarlik (Planning & Preparation for Next Steps), Xarid ro'yxatini tuzish, Xarid marshrutini rejalashtirish, Garderobni tartibga solish rejasini ishlab chiqish
		Ko'nikma:
		Mijoz ehtiyojlarini chuqur tushunish, Fizionomiya va antropometriya asoslarini bilish, Rang tipini aniqlash, Stil yo'nalishlarini aniqlash
		Vizualizatsiya, Kompozitsiya va uyg'unlik, Original g'oyalar yaratish, Moda tendensiyalarini interpretatsiya qilish
		Maqsadga yo'nalganlik, Kapsula garderobni shakllantirish, Byudjetni boshqarish, Uzoq muddatli rejalashtirish
		Fikrni aniq yetkazish, Mijozni ishontira olish, Taqdimot materiallarini tayyorlash, Teskari aloqa bilan ishlash
		Bilim:
		Moda va stil bilimlari, marketing bilimlari
		Rangshunoslik (Color Theory)
		Anatomik va vizual korreksiya bilimlari
		Mato va tekstura bilimlar, psixologiya va muloqot bilimlari
	E1.03.4 Imidjni taklif etish (Taqdimot va kelishuv)	Mehnat harakatlari:
		1. Taqdimotga tayyorgarlik, Vizual materiallarni tayyorlash: Moodboard'lar, stil-kitob, eskizlar kabi imidj tasvirlarni professional tayyorlash
		2. Nutq rejasini tuzish: Taqdimot matnini, asosiy fikrlarni va ehtimoliy savollarga javoblarni rejalashtirish
		3. Samarali taqdimot: Yaratilgan imidjning har bir jihatini (rang, siluet, mato, stil) mijozga batafsil tushuntirish

		4. Vizualizatsiyadan foydalanish: Tayyorlangan materiallar (moodboard, stil-kitob) orqali imidjni mijozga vizual ko'rsatish
		5. Foydalarni ta'kidlash: Yangi imidj mijozga qanday foyda keltirishini (masalan, o'ziga ishonch, karyera o'sishi) aniq misollar bilan asoslab berish
		6. Faol tinglash: Mijozning savollarini, fikrlarini va e'tirozlarini diqqat bilan tinglash
		7. E'tirozlar bilan ishlash: Mijozning shubhalari yoki qarshiliklariga asosli va ishonchli javoblar berish
		8. Kelishuvga erishish: Agar kerak bo'lsa, imidjning ayrim jihatlari bo'yicha muzokaralar olib borish va mijoz bilan murosaga kelish
		9. Kelishuvni tasdiqlash: Imidj konsepsiyasi bo'yicha mijozning yakuniy roziligini olish
		10. Keyingi qadamlarni belgilash: Garderobni saralash, xarid qilish sessiyasi kabi keyingi amaliy ishlarni rejalashtirish
		Ko'nikma:
		Faol tinglash: Mijozning ehtiyojlari, xavotirlari va fikrlarini diqqat bilan eshitish, tushunish
		Aniq ifodalash: Murakkab g'oyalarni tushunarli, oddiy va ixcham tilda bayon etish
		Ishontira olish: O'z g'oyalarining to'g'riligiga mijozni ishontirish, asosli dalillar keltirish
		Notiqlik: Fikrlarni ravon, ishonchli va ta'sirchan tarzda yetkazish
		Kelishuvga erishish: Mijoz bilan umumiy maqbul yechim topish, o'zaro kelishmovchiliklarni bartaraf etish
		Vaziyatga moslashuvchanlik: Mijozning talablariga moslashish, ammo imidj konsepsiyasining asosiy qoidalariga rioya qilish
		E'tirozlar bilan ishlash: Mijozning e'tirozlariga xotirjamlik bilan javob berish, ularni ijobiy hal qilish yo'llarini topish
		Vizual taqdimot: Moodboard'lar, stil-kitoblar kabi vizual vositalardan samarali foydalanish
		Jozibadorlik: Taqdimotni qiziqarli va jozibali qilib o'tkazish, mijozning diqqatini ushlab turish
		O'ziga ishonch: Taqdimot davomida o'ziga ishonchli va professional ko'rinish
		Mijozni tushunish: Mijozning his-tuyg'ulari, xavotirlari va istaklarini tushunish va ularga hamdardlik bildirish
		Ishonch o'rnatish: Mijoz bilan ochiq va ishonchli munosabatlar o'rnatish
		Motivatsiya berish: Mijozni yangi imidjni qabul qilishga va o'zgarishlarga undash
		Bilim:
		Ma'lumotni qanday qilib tinglovchining qabul qilishiga moslab yetkazishni bilish
		Mijozning savollariga va e'tirozlariga xotirjam, asosli javob berish

		Yangi imidjning foydalarini ko'rsatib, mijozni o'zgarishlarga unday olish
		Fikrni tushunarli, aniq va ishonchli tarzda bayon etish
		Mijozning fikrlarini diqqat bilan eshitish va ularni to'g'ri tushunish
		Kelishmovchiliklarda umumiy yechim topish uchun moslashuvchan bo'lish
		Moodboard'lar, stil-kitoblar orqali imidjni mijozga aniq ko'rsata olish
		Kiyimlar va ranglarning vizual ta'sirini mijozga izohlab berish
		Mijoz ma'lumotlarini sir saqlash
		Har doim mijozning manfaatini ustun qo'yish va uning ehtiyojlaridan kelib chiqib ishlash
		Mas'uliyat va mustaqillik
	O'quv yoki kasbiy faoliyat sohasida o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish	
Texnik va/yoki texnologik talab		-

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari

5.1 Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot

№	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan		
1.	Mehnat va kasb standartlari boshqarmasi boshlig'i	Qarshiyev Laziz Nuritdinovich
2.	Kompetensiyalarni rivojlantirish va malakani baholash boshqarmasi boshlig'i	Maxamatxo'jayev Toir Faxriddin o'g'li
Ish beruvchilardan		
3.	O'zbekiston ish beruvchilari Konfederatsiyasi ijrochi direktori	Margishvili Eka Sergeyevna
4.	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Milliy texnik malakani baholash va malaka oshirish markazi direktori	Dusheboyev Faxriddin Mamatkulovich
5.	O'zbekiston sartaroshlar assotsiatsiyasi raisi	Farxat Shamuratov
6.	"AKFA ALUMINIUM" mas'uliyati cheklangan jamiyati raisining kadrlar va ma'muriy ishlar bo'yicha o'rinbosari	Sattarov Yashnar Askarovich
7.	"BMB HOLDING" boshqaruv kompaniyasi bosh direktorning kadrlar, axborot-tahlil, rejim va ichki xavfsizlik masalalari bo'yicha o'rinbosari	Abdullayev Marufjan Mannapovich
8.	"WORLD SKILLS UZBEKISTAN" assotsiatsiyasi boshqaruv raisi o'rinbosari	Xushmurodov Dadaxon Raimovich
9.	"EMAN" xususiy korxonasi (DAFNA) bosh menejeri	Alikperov Vagif Kamalovich
10.	"MOHIR USTA TRAINING" mas'uliyati cheklangan jamiyati direktori	Atabayev Ravshan Maratovich
11.	"AESTHETICS BEAUTY" kompaniyasi direktori	Gulnara Rasulova Djaxangirovna
12.	"FLOWERS GARDEN" mas'uliyati cheklangan jamiyati bosh floristi	Madjitova Yulduz
13.	"LABOUR SYSTEMS" mas'uliyati cheklangan jamiyati Laboratoriya mudiri	Feofanov Vladimir Nikolayevich
Oliy va professional ta'lim tashkilotlaridan		
14.	Samarqand shahri kasbiy ko'nikmalar markazi direktori	Pardayev Dilshod Subonqulovich
Ilmiy-tadqiqot tashkilotlaridan		
	Kambag'allik va mehnat bozori tadqiqotlari instituti direktori	Karimov Dilshodjon Sabirdjanovich
Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha mas'ul xodim		
	Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi, <i>Kengash kotibi</i>	Ismoilov Sobir Xolikberdi o'g'li